

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

*Qo'lyozma huquqida
UDK:336.71(658.1)*

RAJABOV SHAROF ATABOY O'G'LI

**TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassislik: 5A230702 – “Bank hisobi va audit”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n. I.Sayfiddinov

TOSHKENT – 2019

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING BOB SHAKLLANISHI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY . ASOSLARI.....	8
1.1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ichki auditning shakllanishi va uni muvofiqlashtirishning nazariy asoslari.....	8
1.2. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	17
I bob bo'yicha xulosa.....	23
II O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA BOB. ICHKI AUDIT O'TKAZISHNING TAHLILI.....	24
2.1. Tijorat banklarida ichki audit tekshirishlarini tashkil etish tartibi.....	24
2.2. Tijorat banklarida operatsion faoliyatning ichki auditi.....	39
2.3. Tijorat banklarida ichki audit xizmati tomonidan moliyaviy hisobotlarni ichki auditdan o'tkazishning tahlili.....	44
II bob bo'yicha xulosa.....	53
IIITIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT TEKSHIRUVLARI BOB.O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	54
3.1. Bank ichki auditi sifatini oshirish bilan bog'liq muammolar.....	54
3.2. Tijorat banklarida ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tekshiruvlarini o'tkazishni takomillashtirishning umumiy yo'nalishlari.....	59
III bob bo'yicha xulosa.....	68
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	73

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi - mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlari tamoyillarini to'liq qaror toptirishdan iboratdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida izchil islohotlar olib borilayotgan hozirgi bosqichda tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi roli tobora oshib bormoqda.

Ma'lumki, 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF-4947 sonli farmoni e'lon qilindi¹. Ushbu farmonida mamalakatimizni rivojlantirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida aynan bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish, shu jumladan, bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymayotgan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi. Shu o'rinda prezidentimizning "...tijorat banklari bilan birgalikda xorijiy investitsiyalarni olib kirish bo'yicha ishlarning qanday ahvolda ekani to'g'risida shaxsan Prezidentga axborot noma kiritilishi ta'kidlab o'tilgan edi"².

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida ichki audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish muxim xisoblanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» PF-4947-sonli Farmonii 14.02.2017 yil.

² Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

tashkil qilish va uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 25 noyabrdagi 405-sonli "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yilgan talablar to'g'risidagi" yo'riqnomasida ichki audit xizmati xodimlarining javobgarliklari belgilangan. Ichki auditning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ichki audit tekshiruv natijalari asosida bankning real holati va ichki nazorat samaradorligining aniq holati to'g'risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan Bank Kengashini ta'minlash;

- ichki audit tizimini va ichki audit tekshiruv jarayonlarining samaradorligini baholash va tahlil qilish;

- bank faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;

- tavakkalchilikni boshqarish jarayonini qo'llanilishini va tavakkalchilikni baholash metodologiyasining samaradorligini kuzatish;

- moliyaviy axborot tizimini, shuningdek elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;

- buxgalterlik hisoboti va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini kuzatish;

- bank kapitalining tavakkalchiligini baholash tizimini kuzatish;

- bank faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

- doimiy taqdim etiladigan hisobotlarning to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

- Buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini va ishonchliligini o'rganish;

- Bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;

- Bank kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o'tkazish yoki o'tkazishga amaliy yordam berish;

- Audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarlik holatlari to'g'risida bank Kengashiga axborot berish.

Bankda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni balansda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash, buxgalteriya xisobini to'g'ri yo'lga qo'yishda ichki audit xizmatining roli muximdir. Shuning uchun ham dissertatsion ishimizning mavzusi dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti: Mazkur ilmiy tadqiqot ishimizning ob'ekti O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarida ichki audit o'tkazishni tashkil qilish jarayonlari va ular faoliyati natijalarini o'rganish jarayonida yuzaga kelgan moliyaviy munosabatlar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tijorat banklari faoliyatini ichki auditdan o'tkazishning, tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganish, ichki audit o'tkazishning hozirgi axvolini, muammolarini chuqur o'rganib taxlil qilgan holda, talab va tartiblarini mustaxkamlash va takomillashtirish to'g'risida fikr va muloxazalar yuritib, amaliy takliflar ishlab chiqish dissertatsiya ishimizning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

-ichki audit o'tkazishning uslubiyotini va bank ichki auditini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorij tajribalarini o'rganish;

- bank ichki auditining respublikamizdagi me'yoriy-huquqiy bazasini tahlil qilish;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublikamizda bank ichki auditini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi: Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank ichki auditini tashkil etish va o'ziga xos tomonlarini ochib berish ushbu soxada mavjud bo'lgan muammolarni nazariy jihatdan asoslash va Magistrlik dissertatsiyasining asosiy yangiliklariga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklarida ichki auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va ichki audit xizmatining moliyaviy jihatida mustaqilligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

- mamlakatimiz bank tizimida ichki auditorlik tekshiruvlarining o'rni va tashkiliy vazifalarini takomillashtirish zarurligi, jahon iqtisodiy inqirozining ta'sirini va bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi sharoitida ilmiy asoslanib berildi;

- tijorat banklarini o'z mablag'lari, kapitali va aktivlarini, bank mulki, bank muomalalari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish halqaro talablar bo'yicha ilmiy tavsiyalar qilindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishining asosiy masalalari tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvini va uni tashkil qilishning nazariy asoslarini batafsil yoritib berish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida ichki auditorlik tekshiruvini takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi – Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarining e'tiborida bo'lgan. Xususan, xorijlik olimlardan L.Smironova, A.K.Makalskaya³, L.A.Golovnina, L.G.Batrakova, G.N.Beloglazova, O.V.Efimova, E.P.Jarkovskaya, P.S.Rouz, G.G.Korobova, O.I.Lavrushin, D.M.Noton, I.V.Peshchanskaya, A.K.Polishchuk, A.D.Sheremetlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Abdullaeva, N.Karimov, T.Qoraliev, I.Murugova, K.Navro'zova, S.Norqobilov, Abdusalomova O.⁴, X.Rahimova va ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan Qonunlardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

³ Макальская А.К. Внутренний аудит. Уч. ДиС. М.: - 2005. 170 стр

⁴ Norqobilov S. Abdusalomova O. Banklarda audit. O'quv qo'llanma. Toshkent moliya instituti, T.: "Ma'naviyat"- 2005 y.-176 b.

Farmonlaridan, Qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, turli matbuot organlarida e'lon qilingan materiallardan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy ishni yozish jarayonida respublikamiz bank tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan banklarning hisobot materiallari ham jalb etilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi – dissertatsiya ishida dialektik yondashuv, mantiqiylik hamda analiz va sintez, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, 3ta bob, hulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ilmiy jihatdan yangiliklar darajasi va uning amaliy ahamiyati haqida to'xtalib o'tildi.

Birinchi bobda bank tizimida ichki auditorlik tekshiruvlarini tashkil etishning nazariy asoslari va uning me'yoriy xujjatlari asosida tartibga solinishi yoritiladi.

Ikkinchi bobida tijorat banklarida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi va uning muammolari, shu jumladan tijorat banklari ta'sis xujjatlari va ustav kapitali auditini, bank muomalalari auditini, tijorat banklarining kredit muomalalarini ichki auditorlik tekshiruidan o'tkazish tartibi, kabi muhim tushunchalar va masalalar yoritilgan.

Uchunchi bobda, bank tizimida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni takomillashtirish va uning asosiy yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tildi.

Xulosa qismida magistrlik ishlarimiz bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida vujudga kelgan barcha xulosa va takliflar bayon qilingan.

I BOB. TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING SHAKLLANISHI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ichki auditning shakllanishi va uni muvofiqlashtirishning nazariy asoslari

Insoniyat tarixiga bir nazar solsak, jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatda bo'layotgan xodisa va voqealarning kelib chikish sabablari, kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'rganuvchi bir qator tabiiy, iqtisodiy va gumanitar fanlar shakllana boshladi. Bu fanlar bilan birga iqtisodiyot fani ham jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy hodisalarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda jamiyatdagi moddiy ne'matlar yaratishdan tortib, uni iste'moli bilan bog'liq muammolarni o'rgana boshladi.

Butun dunyoda jamiyatning tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning a'zolari insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish va hayotlari uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni yaratish ustida izlanishlar olib boradilar. Bu izlanishlar natijasida jamiyat rivojlanishi shakllana boshlaydi. Shu bilan birga jamiyat a'zolari ya'ni kishilar, guruhlar, tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida o'zlarida mavjud bo'lgan resurslardan foydalanib yuqori daromad olishga erishish va olingan daromaddan samarali foydalanish orqali barqaror turmush tarzini yaratishga bo'lgan intilish kishilar o'rtasida iqtisodiy raqobat kurashini keltirib chiqaradi. Bu raqobat kurashi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'rinmas kuch sifatida doimo turtki beradi va iqtisodiyot va jamiyat shu raqobat kurashi orqali rivojlanadi.

Audit faninig shakllanishiga bir nazar solsak, auditning tarixiy vatani Angliya bo'lib, 18 asrning o'rtalaridan boshlab Angliyada auditorlik tashkilotlari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilingan. Ushbu auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlarga muvofiq aksiyadorlik tashkilotlarda korxonalar va tashkilotlarning boshqaruvchilari zimmasiga bir yilda kamida bir marta buxgalteriya xisob varaqlarini tekshirish va aksiyadorlar oldida hisobot berish uchun maxsus odam taklif qilish vazifasi yuklatilgan edi.

Audit to'g'risidagi qonun Angliyada 1862 yilda chiqqan. Xuddi shunday qonun 1867 yilda Frantsiyada ham qabul qilingan. Amerika Qo'shma Shtatlarida auditning iqtisodiyot uchun zarur ekanligi 1937 yilga kelib tan olindi va tegishli qonun xujjatlari qabul qilindi.

Auditorlik faoliyati bizning mamlakatimizda yangi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda audit 90-yillarning boshida – mustaqillikka erishilgandan so'ng va bozor iqtisodiga o'tishi bilan rivojlana boshladi. Nodavlat sektorida korxonalar vujudga kelishi bilan auditorlik faoliyati xizmatiga talab yuzaga keldi, chunki bozor strukturalari o'zlarining faoliyatlariga mustaqil baho berilishiga ehtiyoj sezilar.

O'zbekistonda auditni rivojlanishiga kadrlarni tayyorlash va normalar ishlab chiqish faoliyati bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Assotsiatsiyasi katta hissa qo'shdi. Auditni rivojlanishida auditorlarning professional tayyorgarliklari muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganish, qilingan ishlarni sarhisob qilish, natijalarni oydinlashtirish, oldindan amalga oshirmoqchi bo'lgan imkoniyatlarni chamalash, kelgusi ishlarni rejalashtirish, faoliyatni sarhisob qilish va faoliyatga baho berish tizimlari o'z-o'zidan jamiyat uchun zarurat sifatida asta sekin shakllana boshladi. Shunday faoliyat turlaridan biri bu auditorlik faoliyatidir.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Auditorlik faoliyatini o'rganuvchi va uning asosini tashkil qiluvchi audit fani korxonalarni ta'sis etishdan tortib uni boshkarish jarayoni, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash va korxonaning faoliyatini tahlil qilishni uslubiy tomonlarini o'rgatadi.

Xususan, korxonaning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, foydalanilayotgan resurslar zaxirasini kengaytirish, ularni ishlab chikarishga jalb etish, korxonaning raqobatbardoshligi darajasini oshirish, xujalik faoliyatiga hamda

korxonaning iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri baho berish kabilar uslubiy tomonlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari audit, korxonalarda buxgalteriya hisobotini tashkil etish, mavjud resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yullarini aniqlash, tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatiga baho berish kabi masalalar echimini ham o'rgatadi.

Jamiyatdagi munosabatlarda auditning zaruriyati xisobot berish kontseptsiyasi talablari bajarilishi yuzasidan kelib chiqadi. Bu bir tomon ikkinchi bir tomonga hisobot berish va majburiyat bajarilishini nazorat qilishni e'tirof etadi va bu nazorat ma'lum bir ma'lumot, tushuntirish yoki hisobot olishni nazarda tutadi. Hisobot berish quyi bo'g'in boshqaruvchilari yuqori bo'g'in boshqaruvchilarning aktsiyadorlarga hisobot berishi kerakligidan kelib chiqadi. Shuning uchun audit nazoratning mexanizmi sifatida yuzaga keladi va hisobot berishning bajarilishiga va ularning oydinlashtirilishiga yordam beradi.

Audit orqali vositachilik shartnomalari amalga oshadi, chunki bunda vositachining faoliyati nazorat qilinadi. To'g'ri ma'lumotlar olishda, berilayotgan axborotdagi noaniqlikni aniqlashda audit yana ham zarurdir. Audit qabul qilinayotgan qarorlar sifatini va korxonada aktivlarini taqsimlanishini yaxshilashga ham yordam beradi. Yana auditga sug'urta kafolati bajarilishini ta'minlaydigan chora sifatida qaraladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishini va iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida auditorlik faoliyati tez sur'atlar bilan rivojlanib taftish tushunchasini siqib chiqarmoqda.

Audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan iqtisodiy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi. Audit o'tkazishda hujjatli va haqiqiy taftishning ayrim amallari, ayrim xisob obektlarini taftish qilish usullaridan foydalaniladi.

Yuqorida aytilganidek ichki auditning natijalari turli maqsadlarda foydalaniladi. Barcha auditning tashkiliy komponentlari CEAning byudjetga

beriladigan hamda auditning ishonchlilik va maslahat tamoyillari asosida yillik audit rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi.⁵

Audit xo'jalik sub'ektining ommaviy moliyaviy hisobotini to'g'riligini, to'liqligini, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlar to'g'risidagi qonun va talablarga javob berishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan mustaqil ekspertiza va taxlilni bildiradi. Bundan tashqari audit yana boshqa nazorat ishlarini o'z ichiga oladi.

Auditning asosiy faoliyati sub'ektning iqtisodiy ahvoriga bog'liq faktlarni yig'ish va baholashdir. Yuqoridagilarni hisobga olib auditning asosiy faoliyat turlarini ko'rishimiz mumkin.

Birinchi, har qanday auditorlik faoliyatini yuritishning majburiy sharti bo'lib uning chegarasi hisoblanadi. Bunday chegaralar muayyan iqtisodiy sub'ektning o'lchamlari yoki tarmoq auditida ma'lumot tizimini tekshirish bilan aniqlanadi.

Ikkinchi, auditor audit ob'ekti va uni o'tkazilishidan manfaatdor bo'lganlar o'rtasidagi «axborot bo'shligini» to'ldirishga harakat qiladi. Bu asosan hisobotlarda ayrim ma'lumotlarni etishmasligi yoki hisobotdagi ma'lumotlar ishonchliligi bilan baholash qaror qabul qilish uchun foydalanish mumkin bo'lmagan holda.

Uchinchi, audit o'tkazayotgan shaxslarning malakasi asosiy shartlardan hisoblanadi. Auditor kerakli ma'lumotlarni yig'ish va o'lchovlarni tushunish orqali ma'lumotlarni baholashni yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari, auditoridan muomala me'yorlariga rioya qilish talab qilinadi, ya'ni u o'zini mustaqilligini saqlash va tashqi hamda ichki ta'sirlarga qarshi tura olishi kerak.

Bozor sub'ektlarining talabiga javob beradigan nazorat turlaridan biri – bu audit tizimidir. Auditning maqsadi - taqdim qilinayotgan hisobotlar to'g'riligi, xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatini aks ettirishi, uning qonuniyligi hamda

⁵ <https://www.sciencedirect.com>. Advances in accounting. Factors that influence the perceived use of internal audit's function work by executive management and audit committee. Mark Eulerich, Jolen Kremin and David A. Wood.

moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi talablariga mos kelishini aniqlashdan iboratdir.

Auditorning korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotini tasdiqlash to'g'risidagi xulosasining bo'lishi, mazkur moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun unga bo'lgan ishonchni oshiradi. Auditorlik tekshiruvlarini maxsus auditorlik firmalari yoki alohida sertifikatga ega auditorlar o'tkazishi mumkin.

Auditorlik nazorati amaliyotda ikkiga ajratiladi: ichki va tashqi audit. Ichki audit auditorlik nazoratini o'tkazish usuliga ko'ra tashqi audit bilan o'xshash bo'lib, u mustaqil auditorlar yoki auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi audit uchun axborotlarni olish manbai bo'lib hisoblanadi.

Tashqi va ichki audit o'rtasidagi sezilarli farq ularning maqomi, asosiy vazifalari va auditorlik tekshiruvini bajarish vaqtiga qarab ajratiladi. Ichki audit asosan mulkdorlar manfaatlariga xizmat qilib, uning asosiy vazifasi korxonaning iqtisodiy ahvoli to'g'risida muayyan korxonaning mulkdorlari uchun axborot tayyorlashdan iborat.

Tashqi audit esa nafaqat mulkdorlar, balki davlat va kreditorlar manfaatlarini uchun ham xizmat qiladi va uning bosh maqsadi, ushbu korxonaning tashqi foydalanuvchilari: aktsiyadorlar, investorlar, banklar, soliq va boshqa davlat organlari, sheriklar uchun korxonaning moliyaviy holatiga xolis xulosa tayyorlashdan iboratdir.

Banklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Tashqi va ichki audit o'rtasidagi sezilarli farq ularning maqomi, asosiy vazifalari va auditorlik tekshiruvini bajarish vaqtiga qarab ajratiladi. Ichki va tashqi auditning o'rtasidagi farqi to'g'risida i.f.d., professor Z.Mamatov quyidagi tarzda farqlab bergan.

Tijorat banklari faoliyatini tashqi auditdan o'tkazish bank va mustaqil auditorlik firmalari o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi va ushbu shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi, ish davomida auditor o'z majburiyatlarini unutmasligi va bank ma'muriyati esa auditor oldida hamma ma'lumotlarni ochiq-oydii tushuntirib berishi va barcha hujjatlarni

etkazib berish majburiyatini olishi lozim. Ichki audit banklarda tashkil qilingan ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchilik va muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha tegishli maslahatlar berish, ichki me'yoriy hujjatlarga mos kelishini va kelgusi istiqbollarni belgilash imkoniyatlarini ko'rsatishdir.

Ichki audit faoliyati moslashuvchan audit qoidalariga asoslangan bo'lib, keng ravishda amalga oshiriladi hamda har bir davlatning birliklariga moslashuvchi bo'lib, xar xil sektorlar faoliyatini boshqarish va alohida shaxslarning madaniyatini ham qamrab oladi. Ushbu tarifdan kelib chiqan holda ichki audit tizimi ichki audit tarifi(ichki auditni o'z ichiga oluvchi elementlar), ichki audit ishonch va maslahat tamoyillarini shuningdek uning qamrov darajasi (risklar, ya'ni nazorat va xodimlarni boshqarish) va bank faoliyatiga o'zining foydasini keltirish kabilarni o'z ichiga oladi⁶.

Ma'lumki, tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini jalb qilgan holda, risk bilan ish yuritadi. Shu sababli, banklar uchun audit, xususan, ichki audit juda muhim hisoblanadi. Ichki audit xodimlarining o'z zimmalaridagi vazifalarni bajarishi qanday tashkil etilganligi va sifatini ichki nazorat qilish tizimining samaradorligini tekshirish hamda baho berishni o'z ichiga olishi lozim. Shu munosabat bilan ichki audit xizmati xodimlari quyidagilarni tekshirishi va baholashi lozim: moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniy hamda o'z vaqtida aks ettirilishi; bank operatsiyalarini amalga oshirish va hisobotlar tuzishda meeri hujjatlarga qat'iy rioya etilishi; aktivlar holati va ularni saqlash usullari; mablag'lardan foydalanish tejamkorligi va samaradorligi; bank boshqaruvi tomonidan qabul qilingan dasturlar bajarilishining to'liqligi va adekvatligi, ularning qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos kelishi.

Ichki audit xizmati tijorat banki tarkibidagi bo'linma bo'lib, u asosan shu bank bo'linmalari (filiallari) va bosh bank faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Ichki auditning asosiy vazifalaridan biri, bu faqat tekshirish o'tkazib, kamchiliklar

⁶ <https://www.sciencedirect.com>. "Current Trends in Internal Audit" Victor Munteanua, Dragos Laurentiu Zaharia, 5th World Conference on Educational Sciences 2013

topish emas, balki shu kamchiliklarni bartaraf etish, ularga yo'l qo'ymaslik uchun nima qilish to'g'risida maslahatlar berishdir. Ichki audit xizmati bankning tuzilishi, katta-kichikligi, joylashishi va bank muomalalarining miqdoriga qarab, bir-ikki kishidan iborat mustaqil bo'lim yoki ma'lum bir boshqarma shaklida tashkil qilinishi mumkin.

Muayyan tijorat bank bo'limini nazorat qilish uchun ichki audit xizmati tomonidan quyidagi dastlabki ishlar amalga oshiriladi: audit o'tkazish ish rejasi tuziladi; auditorlar ro'yxati va ular tomonidan bajariladigan ishlarning maqsadi va vazifalari belgilanadi; o'tgan davrdagi auditorlik xulosasi ko'rib chiqilib, ular bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishi ko'rib chiqiladi; audit o'tkazish bo'yicha buyruq va kassa qiymatliklarini tekshirish uchun guvohnoma tayyorlanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil qilish va uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 25 noyabrdagi 405-sonli Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yilgan talablar to'g'risidagi yo'riqnomasida ichki audit xizmati xodimlarining javobgarliklari belgilangan.

Shuningdek, Markaziy bankning yuqorida aytib o'tilgan yo'riqnomasiga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari quyidagi talablarga javob berishlari shart: bajarayotgan vazifalari xarakteriga taalluqli oliy ma'lumotga hamda tegishli kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari; bank qonunchiligi hamda Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi hududida bank faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy hujjatlarni bilishlari; umumiy qabul qilingan xalqaro buxgalteriya hisobi va audit andozalarini yaxshi bilishlari; o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari; vazifalarini hal etish ko'lamini va muddatiga doir auditorlik dasturlari rejalashtirilayotganda cheklovlarga ega bo'lmasliklari kerak.

Ichki bank auditining ishi aniq rejalashtirilgan va u o'z dasturiga ega bo'lishi va bu auditorlik dasturi quyidagi talablarga javob berishi kerak, ya'ni: maqsadlarni o'z ichiga olishi; dastur qamrov doirasi auditorlik maqsadlariga erishish uchun etarli bo'lishi lozim; batafsil ish dasturi va ko'rilayotgan har bir soha uchun belgilangan zarur tartiblarni o'z ichiga olishi; har bir dastur talab qilinayotgan ishni aniq va qisqa

tarzda izohlab berishi va bank operatsiyalarining xususiyati va mukammalligiga qarab bir yoki bir nechta bo'limlar faoliyatini qamrab olishi; auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish doimiyligi audit o'tkazish lozim bo'lgan har bir sohaga bog'liq tavakkalchilik darajasini baholashga asoslangan bo'lishi (auditor bank operatsiyalari tavakkalchiligi darajasini aniqlashda bank operatsiyalarining xususiyatlari, bank aktivlari va majburiyatlari bilan bog'liq va ichki nazoratning tegishli siyosati va andozalarining mavjudligi hamda boshqaruv va ichki nazoratning samaradorligi kabi omillarni e'tiborga olish kerak).

Ichki auditning hisobotlari bevosita bank kengashiga yoki auditorlik qo'mitasiga taqdim etilishi shart. Hozirgi paytda mazkur hisobotlar nusxalari bank boshqaruvi va bankning alohida tarkibiy tuzilmalari boshliqlariga taqdim etiladi (bevosita ushbu bo'linmaga tegishli qismi);

Banklarning ichki audit xizmati respublikamizda hozirda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy auditorlik kompaniyalari bilan qizg'in hamkorlik qilishlari zarur. Audit xizmatidan foydalanish tijorat banklarining katta miqdordagi mablag'larini tejaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari ichki auditiga qo'yilgan talablar to'g'risida"gi yo'riqnomasida auditorlar qo'mitasi bank kengashi tomonidan tuzilib, uning tarkibiga bank boshqaruvi a'zolaridan hech kim kiritilmasligi ko'rsatilgan. Bank tizimini rivojlantirish, banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish, hissadorlar, ta'sischi, mijozlarning manfaatini himoyalash va banklarimizni xalqaro miqyosiga olib chiqishda bank auditining, jumladan bank ichki auditining ahamiyati kattadir. Xorijiy davlatlar tajribasi bank ichki auditi bozor iqtisodiyotining muhim elementi ekanligini tasdiqlagan.

Aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi banklar faoliyatini bank kengashi va bank boshqaruvi orqali bank aktsiyadorlari boshqarishadi hamda asosiy ma'suliyat bank kengashi zimmasiga tushadi. Chunki bank kengashi aktsiyadorlar manfaatini himoya qiluvchi boshqaruv organi hisoblanadi. Bank kengashi a'zolari aktsiyadorlarning ishonchli vakili sifatida bank aktivlarini himoya qilish, o'z manfaatlaridan ko'ra aktsiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini ustun qo'yishga

majburdirlar. Bank kengashi bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotni ichki audit xizmatidan oladi va olingan ma'lumotlar asosida tegishli qarorlar qabul qiladi.

Banklarda bank kengashi va boshqaruvini bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumot bilan ta'minlash maqsadida ichki audit xizmati to'g'risida nizom ishlab chiqiladi hamda ushbu nizom bank kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bankda tashkil qilingan ichki bank audit xizmati asosan shu nizomga muvofiq faoliyat yuritadi. Ichki audit tomonidan barcha bank bo'linmalari bir yilda bir marta ichki auditdan o'tkazilishi lozim. Chunki bank kengashi barcha bank bo'limlari faoliyati bilan tanish bo'lishi kerak.

Respublikamizda auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri xorijlik hamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasini berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish xisoblanadi.

O'zbekistonda auditning tarkib topishi misilsiz tarixiy o'zgarish bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan izohlanadi. Chunki bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik sub'ektini boshqarish vazifasi professional menejerlar qo'lga o'tdi, natijada tashkilot moliyaviy holatini mustaqil nazorat qilishga ehtiyoj tug'ildi. Kapitallarni jamlashda aktsiyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, korporativ boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi mustaqil moliyaviy ekspertiza natijalari oshkoraligini ta'minlash zaruratini tug'diradi. Chunki moliyaviy hisobotlar tashkilot bilan aloqada bo'lgan barchani, ya'ni rahbarlar, xodimlar, mijozlar, mulkdorlar, kreditorlar, investorlar, davlat va hokimiyat organlarini mustaqil auditorlar tasdiqlaydigan axborotlar qiziqtiradi, hisobotlar boshqa tashkilotlarning banklar bilan hamkorlik qilishi uchun ishonch uyg'otadi. binobarin mamlakatimizda audit turli guruhlarning qiziqishi va talablariga javob tariqasida paydo bo'ldi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz tomonidan ushbu sohani rivojlantirish va talab darajasida amalga oshirilishini ta'minlash, hamda respublikamizda audit sohasini rivojlanishi va takomillashishi uchun barcha choralarni ko'rib bormoqda.

1.2. Bank ichki auditini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Bugungi kunda respublika tijorat banklarida ichki audit faoliyati umum qabul qilingan me'yoriy xujjatlarga asoslangan bo'lib, ushbu jarayonning shakllanishida mas'ul davlat tashkilotlari bilan bir qatorda, nodavlat, notijorat tashkilotlari, O'zbekiston auditorlar palatasi, O'zbekiston professional buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi vakillarining faol ishtirok etishlari auditning jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga ijobiy turtki bo'lmokda.

Respublikamizda hozirgi davrda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi idoralar huquq va majburiyatlarini belgilash, davlat va jamoat auditorlik tashkilotlarining roli va funktsiyalarini aniqlash jarayoni kechmoqda. Bu auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar tizimining yuzaga kelishiga omil bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida auditni rivojlantirish bosqichlari jahon amaliyoti tajribasidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmokda. Ushbu bosqichlarning asosiy negizi tashqi auditning rivojlanish tarixi bilan bog'liq bo'lib, tijorat banklarida ichki audit tizimi tashkil topishi ham ushbu jarayonning yakuniy bo'g'inidir.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlar tizimining ikkinchi pog'onasi hujjatlarida auditorlik faoliyatini tartibga solishning bozor sub'ektlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan umumiy masalalar nizom ko'rinishida belgilab berilgan.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining uchinchi pog'onasini auditorlik faoliyati andozalari tashkil etilib, ularning asosiy vazifalari moliya-xo'jalik faoliyatining barcha sub'ektlari va boshqa tashkilotlar tomonidan bir xil talqin qilinuvchi audit me'yorlari va ulardan foydalanish uslublarini qamrab olishdan iboratdir.

Auditorlik faoliyatining huquqiy bazasi.⁷

Huquqiy-me'yoriy hujjatlar va normalar	Maqsadlari	Asoslari
Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonun	Moliyaviy iqtisodiyot tizimida auditning ahamiyati va vazifalarini belgilab beradi	1992 yilda qabul qilingan va 2000 yil 26 mayda yangi tahriri qabul qilingan
Qonuniy va me'yoriy hujjatlar	Auditorlik faoliyatini tartibga solish uchun xizmat qiladi	Auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan litsenziya berish va sertifikatlash bo'yicha umumiy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan
Auditorlik faoliyati andozalari	Auditorlik firmalari tomonidan rioya qilinishi lozim bo'lgan talablarni belgilaydi	Xalqaro auditorlik andozalari asosida auditning milliy standartlari ishlab chiqilgan
Maxsus auditorlik faoliyati bo'yicha andozalari, vazirliklar va tashkilotlar ichki me'yoriy hujjatlari	Auditorlik faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha maxsus qoidalarni belgilaydi	Markaziy bank tomonidan banklarda audit tekshiruvlarini o'tkazish uchun maxsus qoidalar belgilangan
Ichki audit andozalari	Tashkilot va korxonalarda, banklarda ichki audit mexanizmini belgilaydi	Markaziy bank tomonidan banklarning ichki audit xizmati uchun qoidalar ishlab chiqilgan

To'rtinchi pog'ona - vazirliklar va idoralar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining auditorlik faoliyatini tashkil etish hamda muayyan sohalar bo'yicha soliqqa tortish, moliya, buxgalteriya hisobi, xo'jalik hisobining alohida masalalari bo'yicha audit o'tkazish qoidalarini o'rnatuvchi me'yoriy xujjatlardan tashkil topgan.

Auditorlik faoliyatining beshinchi pog'onasi o'z ichiga ichki audit andozalarini qamrab olgan.

O'zbekistonda audit 1991 yilda tashkil topa boshladi. Ushbu davrda auditorlik faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Asosiy me'yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, dastlab 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan va yangi tahrirda 2000 yil 26 mayda qabul qilingan.

⁷ Karimov N. "Bozor, pul va kredit" jurnal. 2010 yil 10-son.

2. «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori.

3. «Auditor malaka sertifikatini berish to'g'risida»gi nizam O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 13 oktyabrda 977-son bilan ro'yxatga olingan.

4. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standartlari.

5. O'zbekiston Auditorlarining kasbga oid ahloq kodeksi O'zbekiston Auditorlar palatasining 2005 yil 25 iyun 3-son, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2005 yil 4-son qarorlari bilan tasdiqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil apreldagi PQ-615-sonli «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi PQ-907-sonli «Auditorlik tashkilotlari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi» Qarorining ilovasiga asosan o'zgartirishlar kiritilgan) Qaroriga muvofiq, ya'ni 2009 yil 1 avgustgacha barcha litsenziya olgan va yangidan tashkil etiladigan auditorlik tashkilotlari jami Ustav kapitalining 51 foizi auditorlarga tegishli bo'lishi hamda uning 49 foizi pul ko'rinishda qo'yilishini ta'minlashlari shart. Tijorat banklarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazish huquqiga Markaziy bank litsenziyasiga ega bo'lgan uchinchi guruh auditorlik tashkilotlari ega bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvi natijalari ko'pchilik iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lganligi sababli barcha davlatlarda audit etarli darajada qat'iy tartibga solinadi. Ularning ayrimlarida masalan, Frantsiyada auditning me'yorlari, me'yoriy hujjatlari, auditorlar va auditorlik firmalarini ro'yxatga olish va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish yo'li bilan davlat ushbu jarayonga aralashadi. Boshqa davlatlarda (AQSh, Angliya) ushbu jarayon kasbiy ijtimoiy auditorlik tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda shakllangan va rivojlanayotgan auditorlik faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartibga solish tizimini uchta pog'onaga bo'lish mumkin. Ushbu tizimning

birinchi (yuqori) pog'onasida O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) turadi.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan Prezident Farmonlari va hukumat qarorlarini ham ushbu tizimning birinchi pog'onasiga kiritish mumkin.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining ikkinchi pog'onasi - Auditorlik faoliyatining milliy standartlarini (AFMS) va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) - bu barcha auditorlik tashkilotlari o'zlarining professional faoliyatlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan yagona tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlardir. Standartlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilib tasdiqlanadi va Adliya vazirligida ro'yxatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) Auditning Xalqaro Standartlari (AXS (International Standards of auditing - ISAS) negizida ishlab chiqiladi va asosan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish qoidalarini belgilaydi. Bu qoidalar moliya-xo'jalik faoliyatining barcha sub'ektlarida bir xil qo'llaniladi. Hozirgi kungacha 20 ta AFMS ishlab chiqilgan va Adliya vazirligida ro'yxatga olingan.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifatini va uning natijalari ishonchliligini kafolatlaydi. Auditorlik faoliyati milliy standartlarini xalqaro standartlar talablari darajasiga etkazish uchun shakl va mazmun jihatidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Auditorlik standartlarining ahamiyati quyidagilardan iborat: ularga rioya qilinganda auditorlik tekshiruvlarining yuqori sifatli bo'lishi ta'minlanadi; auditorlik amaliyotiga yangi ilmiy yutuqlarni joriy qilishga yordam beradi; muayyan vaziyatlarda auditorlar qanday ish tutishlarini belgilab beradi.

2002 yil 13 dekabrda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, «auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvining shakllari va usullarini mustaqil belgilaydi». Demak, auditorlik tashkiloti o'zining ichki ish standartlarini shakllantirishi va buyruq bilan tasdiqlashi zarur. Ichki ish standartlarida tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektning tarmoq, texnologik va

boshqa xususiyatlari aks ettirilishi kerak. Ammo, ularning qoidalari xalqaro va milliy standartlar qoidalaridan chetga chiqmasligi lozim. Ichki ish standartlarini auditorlik faoliyati huquqiy-me'yoriy tartibga solish tizimining uchinchi pog'onasiga kiritish mumkin.

Demak, uchinchi pog'ona — xalqaro va milliy standartlarni tadbiq qilish uchun zarur hujjatlar to'plami. Ya'ni auditorlik tashkilotining ichki ish standartlaridan iborat. Bu hujjatlar standartlarni qo'llash va ular asosida auditorlik faoliyatini tashkil etishga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishida professional jamoat tashkilotlari ham muhim o'rin tutadi. Jumladan:

1. O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi (O'zBAMA) - buxgalterlar, auditorlar, ilmiy va pedagogik xodimlar, soliqlar bo'yicha maslahatchilarning respublika jamoat tashkiloti bo'lib, o'z a'zolarini ular manfaatlari va maqsadlarining umumiyligi, hududiy yoki professional tamoyillari bo'yicha birlashtiradi.

Assotsiatsiya O'zbekiston Respublikasida buxgalterlar va auditorlar kasb malakasini rivojlantirish va ularni xalqaro standartlar talablariga moslashtirishni ta'minlaydi. Shuningdek, buxgalterlar va auditorlarni professional himoyalashda amaliy yordam ko'rsatadi.

Assotsiatsiya buxgalteriya hisobi, auditorlik faoliyati, soliqqa tortish, xususiylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozori, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining tahlili va moliyaviy menejment bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. Shu bilan birga yuqorida sanab o'tilgan masalalar bo'yicha maslahatlar beradi.

2. O'zbekiston Auditorlar palatasi (O'zAP) - malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkiloti. Auditorlar palatasining asosiy maqsadi auditorlarning professionallik darajasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam ko'rsatish, o'z a'zolarining kasbga oid manfaatlarini davlat va jamoat organlarida himoya qilish, hamda kasbga oid talablar

bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risidagi va axborot ta'minoti bo'yicha aloqa o'rnatishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarning roli va maqomini oshirish, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalarini hisobga olishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrda 365-sonli qaror qabul qildi. Ushbu qarorni amalga tadbiq etish uchun «Auditorlik xulosalarini soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risida» Nizom (qarorga 1-ilova) tasdiqlangan.

Mazkur Nizom auditorlik xulosalarini moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi (taftish qiluvchi) soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibini belgilaydi. Nizomda, «Mavjud auditorlik xulosalarini umumlashtirish natijalari bo'yicha yig'ma axborot soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini nazorat organlari tomonidan tekshirishning kelgusidagi reja-jadvalini tuzish uchun nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashiga joriy yilning 1 oktyabrigacha taqdim etiladi. Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirish reja jadvaliga belgilangan tartibda kiritilishi kerak.

Mazkur Nizom qoidalarining buzilishi uchun soliq organlari va boshqa nazorat organlari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar. Soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkazilgan tekshirishda auditorlik xulosasining xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliya-xo'jalik faoliyatining natijalariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, ushbu auditorlik xulosasi oldindan noto'g'ri deb hisoblanadi, auditorlik tashkiloti, shuningdek bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq organlari va tegishli auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlari qoidalarining buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini xabardor qilishlari shart.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori talablarini bajarish maqsadida «Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida» Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektdan jarima undirishning yagona tartibini belgilab beradi. Birinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, Respublikamizda bank auditini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy bazasi shakllantirilgan. Respublikamiz hukumati tomonidan bank auditini o'tkazishni yanada rivojlantirish borasida va uni jahon andozalari talablariga mos ravishda o'tkazish borasida ishlar olib borilmoqda. Biz keyingi paragraflarda ushbu masalalarga to'xtalamiz.

I bob bo'yicha xulosa

O'zbekistonda auditning tarkib topishi misilsiz tarixiy o'zgarish bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan izohlanadi. Chunki bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik sub'ektini boshqarish vazifasi professional menejerlar qo'liga o'tdi, natijada tashkilot moliyaviy holatini mustaqil nazorat qilishga ehtiyoj tug'ildi. Kapitallarni jamlashda aktsiyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, korporativ boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi mustaqil moliyaviy ekspertiza natijalari oshkoraligini ta'minlash zaruratini tug'diradi. Chunki moliyaviy hisobotlar tashkilot bilan aloqada bo'lgan barchani, ya'ni rahbarlar, xodimlar, mijozlar, mulkdorlar, kreditorlar, investorlar, davlat va hokimiyat organlarini mustaqil auditorlar tasdiqlaydigan axborotlar qiziqtiradi, hisobotlar boshqa tashkilotlarning banklar bilan hamkorlik qilishi uchun ishonch uyg'otadi. binobarin mamlakatimizda audit turli guruhlarning qiziqishi va talablariga javob tariqasida paydo bo'ldi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA

ICHKI AUDIT O'TKAZISHNING TAHLILI

2.1. Tijorat banklarida ichki audit tekshirishlarini

tashkil etish tartibi

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llashni toqoza etadi. Shu bois Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki va tashqi auditni kuchaytirishga nisbatan qo'yayotgan qat'iy talablari nazorat organlari va moliya-kredit muassasalarining o'z zimmlariga yuklanayotgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarishiga sharoit yaratmoqda.

Ichki va tashqi auditdan kutilgan asosiy maqsad ilgariroq ta'kidlaganidek, ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, nazorat qilib borishdan iborat. Biroq ular o'rtasida muayyan farqlar ham borki, bu auditor xarakteriga bog'liq. Tashqi audit hisobot tizimini baholash, bankning aktiv va passivlarini baholash va tekshirish, mavjud ichki nazorat tizimini testdan o'tkazishdan iborat. Tashqi audit tekshirilayotgan bankning taqdim etgan hisoboti va balanslari haqiqatga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi, uning moliyaviy ahvoli va muayyan davrdagi faoliyati natijalarini baholashdan iborat. Chetdan taklif etilgan, mustaqil auditorlik firmalari tomonidan tayyorlangan xulosalar yuqori tashkilotlarga, aktsiyadorlar, kreditorlar va hokazolarga mo'ljallanadi va undan ichki auditorlar ham foydalanadi.

Ichki audit tashqi auditga nisbatan belgilanishi va tashkil etilishiga qarab, boshqacha xarakterga, mazmunga ega bo'ladi. Ichki audit bank doirasida mustaqil bo'linma sifatida bank faoliyatining har kungi faoliyatini tekshiruvdan o'tkazib boradi. Umum tomonidan qabul qilingan qoidalarga ko'ra, ichki audit bankning o'z majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi, ya'ni birinchi navbatda muammolarning endigina vujudga kelayotgan davrida aniqlashga yo'naltirilgan

bo'ladi. Ichki audit boshqaruv quroli, bank operatsiyalarini ichki kuchlar yordamida juda yaqindan kuzatish imkoniyati bo'lib, boshqaruv maqsadiga erishish kafolatidir. Buning uchun ichki audit xizmati boshqaruvni bajarilgan analiz natijalari haqidagi axborot bilan ta'minlab, bo'linmalar faoliyatini, har xil yo'riqlarni tahlil etib, ularga yuzaga chiqayotgan muammolarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar berib boradi. Ichki audit xizmati xodimlari tashqi auditorlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Ichki audit natijalari bank rahbarlari tomonidan amaldagi qonunlar doirasida mavjud resurslarni hisobga olgan holda joriy ishlarni boshqarishda foydalaniladi. Shu tariqa ichki audit tashkilotning o'z maqsadiga erishishi uchun xizmat qiladi. Bank faoliyatining ichki audit vazifalari yuqorida sanalganlardan farq qilmaydi, ammo bank faoliyatining xususiyatlari, bank mahsulotlari, buxgalteriya hisobi, ishni tashkil etish jarayoni, tavakkalchilik omillarining ko'pligi bilan o'zgacha xususiyatga egadir. Ichki audit jarayonida topshiriqlarning bajarilishi turli-tuman bo'lib, uning maqsadi va tashkilot faoliyati harakteriga bog'liqdir. Qo'yilgan vazifalarni har xil mezonlarga suyangan holda turli yo'llar, har xil teranlik va detallar bilan echish mumkin. Bunda standartlar katta o'rin tutadi. Davlat apparati rivojlangan mamlakatlarda audit muammolariga, jumladan, ichki auditga katta e'tibor beriladi. Shu o'rinda nazorat qilish yuqori institutlarining xalqaro tashkiloti The International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSA) bo'lib, unga AQSh, Angliya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakatlar a'zodir. Xalqaro ichki auditorlar instituti The Institution of Internal Auditors, (IIA) ham mavjud. Bu yo'nalishda hukumatning maxsus tashkilotlari masalan, AQShda (General Accounting Offis) ish olib boradi. Bu kabi idoralarning har birida audit standartlarini ishlab chiqadigan maxsus bo'linmalar mavjud. Bu standartlardan kutilgan maqsad ichki auditning ahamiyati va mas'uliyatini tushuntirish, ichki audit bo'yicha boshqaruv uchun asoslar yaratish va ishlarni me'yorlashtirish, ichki auditni o'tkazish tajribasini takomillashtirishdan iborat. Standartlarning asosiy printsiplariga mustaqillik va ob'ektivlik, professionallik, ish hajmi, auditorlik topshirig'ini bajarish, ichki audit bo'limini boshqarish kiradi. O'zbekistonda tijorat banklarida ichki auditga qo'yiladigan talablar Markaziy bankning 2000 yil 24

iyundagi “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to’g’risida”gi va 2000 yil 25 noyabrda “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki auditiga qo’yiladigan talablar to’g’risida”gi nizomlarida belgilab berilgan. Ana shu asosda har bir tijorat bankida mustaqil ichki audit xizmati tashkil etilgan va ular o’z faoliyatini Markaziy bank talablari darajasida tashkil etganlar.

Audit xizmatlari o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasi qonunlari, Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari, bankning ichki me’yoriy hujjatlari hamda o’z nizomlari asosida olib boradi. Audit xizmati, bugungi kunda, aytish mumkinki, tijorat banki va uning barcha filiallari va boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatini auditdan o’tkazish orqali Bank kengashiga bank faoliyati istiqbollari va maqsadlariga erishishda haqiqiy ko’makchi bo’lmoqda. Audit xizmati mustaqil tarkibiy tuzilma bo’lgani bilan o’z faoliyatini bankning boshqa mustaqil boshqarmalari bilan hamkorlikda olib boradi. Audit xizmati bevosita Bank kengashi va uning auditorlik qo’mitasiga bo’ysunadi. Audit xizmatining tarkibiy tuzilishi va shtat birligini ham Bank Kengashi tasdiqlaydi.

Bosh auditor (audit xizmati rahbari) Bank kengashi qarori bilan tayinlanadi va o’z lavozimidan ozod etiladi. Audit xizmatining boshqa xodimlari Bank kengashi raisi tomonidan bosh auditor tavsiyasiga asosan tasdiqlanadi. Audit xizmati Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan harajatlar smetasiga ega bo’ladi. Harajatlar smetasi har yili bosh auditor tomonidan ishlab chiqiladi va Bank kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Faqat Bank kengashi audit xizmatining harajatlar smetasiga o’zgartirish kiritish mutloq huquqiga ega. Audit xizmati xodimlarining ish haqlari Bank kengashi tomonidan o’rnatiladi.

Ichki audit xizmatini yo’lga qo’yishdan kutilgan maqsad ichki nazorat tizimi, jumladan moliyaviy hisobotlarni tuzish ustidan nazorat o’rnatishdir. Ichki audit tomonidan bank faoliyati, boshqaruv jarayoni sifatini oshirish, bank faoliyatini yanada yaxshilashga yo’naltirilgan ob’ektiv baho va maslahat berish bankning moliyaviy bozordagi o’rnini mustahamlashga olib keladi. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish Bank kengashining zimmasiga yuklatilgan bo’lib, ichki nazoratning samaradorligi bilan bog’liq masalalarni vaqti-vaqti bilan ko’rib boradi,

bankdagi ichki nazorat ahvolini bank menejerlari, ichki va tashqi auditorlar bilan muhokama etadi, ichki va tashqi auditorlar, nazorat muassasalarining bankda aniqlangan kamchiliklarni barataraf etishdagi takliflarining bank rahbarlari tomonidan bajarilishini ta'minlaydi, mavjud tavakkalchilik va limitlarning bank strategiyasiga mos kelishini kuzatib boradi. Bank rahbariyati xodimlarning o'z burchlarini og'ishmay bajarishini ta'minlaydigan vakolat va mas'uliyatini aniq belgilab berishi kerak. Chunki bank risklarini nazorat qilish va monitoring qilish uchun birinchi navbatda bank rahbarlari javobgardir.

Ichki audit o'z faoliyatining maqsadlariga erishish uchun asosan quyidagi vazifalarni bajaradi: Bank kengashini audit tekshiruvlariga asoslangan bankning haqiqiy moliyaviy holati va bankning ichki nazorat tizimi samaradorligi to'g'risidagi aniq va mustaqil (holis) ma'lumotlar bilan ta'minlab boradi; ichki audit tizimining samaradorligi va audit tekshiruvini o'tkazishga doir qabul qilingan tartib va tadbirlarning amalda qanday qo'llanilayotgani va ta'sirchanligini baholaydi va tahlil qiladi; bank faoliyatida ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun qo'llanilgan ma'muriy va amaliy tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi; tavakkalchiliklarni boshqarishga va ularni baholash uslublariga doir tartiblarning qo'llanilishi hamda ularning samaradorligini tahlil qiladi; moliyaviy ma'lumotlar tizimini, jumladan elektron ma'lumotlar tizimi va elektron bank xizmatlarini tahlil qiladi; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini tahlil qiladi; bank faoliyatining amaldagi qonun va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini baholaydi; Bank kengashi tomonidan qabul qilingan ichki siyosatlar va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga rioya qilinishini tekshiradi; doimiy hisobotlarning to'liqliligi, ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim qilinishini tekshiradi; buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi va haqqoniyligini o'rganadi; kapital tarkibi va etarliligi, aktivlar sifati va ssuda portfelini tasniflash asosida zahiralarni tashkil qilinishini, balans va balansdan tashqari moddalar tarkibidagi o'zgarishlar harakati va jihatlarini, Bosh bank tomonidan tasdiqlangan moliya rejasi ijrosining bajarilishini, daromadlar tarkibidagi balansning asosiy jihatlarini, boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi; Bank kengashi

talabiga asosan maxsus tekshirishlar o'tkazadi yoki maxsus tekshirishlar o'tkazishga yordam beradi; bank xodimlariga ularning o'z vazifalarini samarali bajarishda ko'maklashish; oylik, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni joriy auditdan o'tkazish; buxgalteriya, amaliyot va ma'muriy nazorat tizimining monandligini baholashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ichki audit xizmati: bank ichki siyosati va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishda qatnashadi; o'zaro tajriba almashish va malaka oshirish maqsadida boshqa tijorat banklari va tashkilotlarning ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik qiladi; ma'lumotlarni almashish orqali ichki audit xodimlari tashqi auditorlarga yordam beradi va ularning ishida ko'maklashadi; o'tkazilgan audit tekshiruvlari materiallarini umumlashtiradi va Auditorlik qo'mitasiga tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi; audit o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha Bank kengashi va Boshqaruv tomonidan qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Audit xizmatiga Bank kengashi tomonidan tayinlangan bosh auditor rahbarlik qiladi. U audit o'tkazishni rejalashtiradi, siyosat va jarayonlarni belgilaydi, xodimlar malakasini oshirish va o'qitish choralari ko'radi, sifatga javob beradi.

Bosh auditorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: audit xizmati faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi; audit xizmatining tarkibiy bo'limlari to'zilishini, ularning lavozim vazifalarini, audit xizmatining nizomini, audit tekshirishlari tartiblarini, audit xizmatining yillik harajatlar smetasini ishlab chiqadi va ushbu hujjatlarning ichki audit standartlariga muvofiqligini ta'minlaydi; audit xizmatiga malakali xodimlarni jalb qiladi va ular faoliyatini bevosita boshqaradi; audit xizmati xodimlarining malakalarini oshirish choralari ko'rib boradi; Bank kengashi va auditorlik qo'mitasiga audit xizmati faoliyati bo'yicha doimiy hisobotlar berib boradi; Bosh auditor lavozim yo'riqnomasida qayd etilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Audit xizmati xodimlarining huquq va vakolatlarining aniq belgilanishi o'z faoliyatini sifatli va samarali bajarilishini ta'minlaydi. Tekshiruv davomida ular:

tekshirish o'tkazish maqsadida Bosh bank va bank filiallarining barcha bino va xonalariga, shu jumladan kassa tarmog'i, pul almashtirish shoxobchalari, jamg'arma kassalariga to'siqsiz kirish; bank faoliyatiga tegishli bo'lgan va audit tekshiruvi predmeti hisoblangan barcha zarur hujjatlarni bank va bank filiallari rahbarlari hamda xodimlaridan talab qilish; tekshirish davomida bank va uning filiallari rahbarlari, xodimlaridan yuzaga kelgan savollar bo'yicha tushuntirishlar olish, zarur hollarda ulardan yozma tushuntirishlar olish; hujjatlardan nusxalar olish; zarur hollarda, belgilangan tartibda (kelgusida saqlanishi gumon bo'lgan) hujjatlarning asl nusxalarini olib qo'yish; alohida bank operatsiyalari va hujjatlari tekshirilayotganda rasmiy so'rovnomalar orqali bank mijozlaridan zarur ma'lumotlar, tasdiqnomalar va hujjatlarni talab qilib olish huquq va vakolatlariga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha filiallarga nisbatan tegishli choralar ko'rilishi to'g'risida Bank kengashiga takliflar kiritib borishi lozim.

Audit xizmati xodimlari bank faoliyatining barcha qirralarini tekshirish huquqi o'z navbatida, ularga muayyan majburiyatlar ham yuklaydi, hisobotlarning to'g'ri va haqqoniy to'zilishida katta mas'uliyatga ega bo'ladilar. Bu jihatdan ular: bank muassasasida tekshirish o'tkazish haqidagi farmoyish va xizmat guvohnomasiga ega bo'lishi; bank va uning filiallarida o'tkazilgan tekshirish jarayonida ma'lum bo'lgan bank va tijorat sirlarining maxfiylikini ta'minlashi; audit tekshiruvlarini mutlaq mustaqil ravishda olib borishi; audit tekshiruvlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazishi; tekshirish natijalari bo'yicha o'z vaqtida holis audit hisobotlarini tayyorlash va taqdim etishi; audit tekshiruvi o'tkazishga doir Markaziy bank me'yoriy hujjatlari va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga rioya qilishi lozim.

Shu bilan birga ichki audit xizmati xodimlari: tekshirish natijalarini bo'zib ko'rsatgani, bank va uning filiallari moliyaviy holatiga holis baho bermagani; tekshirish jarayonida ma'lum bo'lgan bank va tijorat sirlarining maxfiylikini ta'minlamagani; tekshirish davomida olingan hujjatlarning butligi va qaytarilishini ta'minlamagani; uchun ichki audit xizmati xodimlari O'zbekiston Respublikasining

amaldagi qonunchiligi va bankning tegishli ichki me'yoriy hujjatlariga binoan javobgar bo'lishi lozim.

Ichki audit xizmati xodimlarining professional malakasi ichki audit xizmati va har bir auditorning mas'ulligini belgilaydi. Har bir auditor buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, moliyaviy ish, statistika, ma'lumotlarni qayta ishlash, texnika, soliqqa tortish va huquq sohasida puxta bilimga, ish faoliyati davomida ichki audit standartlari, protseduralari va usullarini, buxgalteriya hisob printsipi va metodlari, boshqaruv printsiplari, AKTda joylashtirilgan axborot tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Bunda: bajarayotgan vazifalari harakteriga mos oliy ma'lumotga hamda tegishli kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari; bank qonunchiligi hamda Markaziy bankning bank faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma va me'yoriy hujjatlarini bilishlari; umumiy qabul qilingan xalqaro buxgalteriya va audit andozalarini yaxshi bilishlari; o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari; vazifalarni hal etish ko'lami va muddatiga doir auditorlik dasturlari rejalashtirilayotganda cheklovlarga ega bo'lmasliklari lozim.

Tekshiruvlar "Audit xizmatining banklar faoliyatini audit tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida"gi tartibiga asosan amalga oshiriladi. Audit xizmatining ish dasturi: audit tekshiruvi aniq maqsadga ega bo'lishi; dastur qamrov doirasi audit maqsadlariga erishish uchun etarli bo'lishi; bajarilgan ish rejasi va ko'riladigan har bir tarmoqning zarur tamoyillari tasvirini o'z ichiga olishi talablariga javob berishi lozim.

Amalga oshirilayotgan amaliyotlar hajmi va murakkabligiga yoki harakatdagi me'yoriy hujjatlarning o'zgarishiga qarab dasturga kiritilgan tamoyillar o'zgarib turishi mumkin. Auditorlik hisoboti audit tekshiruvi tugashi bilan qisqa muddat ichida tayyorlanadi. U o'z ichiga audit tekshiruvi maqsadi va ob'ekti, tekshirish vaqtida aniqlangan muammo va kamchiliklar, aniqlangan har bir muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflarni qamrab olgan bo'lishi shart. Muammolarni bartaraf etish bo'yicha tayyorlangan takliflarda aniqlangan muammolarning qisqacha tavsifi, bu muammolarni to'g'rilash bo'yicha amalga oshiriladigan choralar, ularga

biriktirilgan mas'ul xodimlar va choralarni amalga oshirish uchun belgilangan muddatlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Audit xizmati xodimlarining hisobotlari bevosita Bank kengashiga va auditorlik qo'mitasiga taqdim qilinadi. Ushbu hisobotlarning nusxalari Bank boshqaruviga, aniqlangan kamchiliklarga tegishli bo'lgan qismi esa muayyan boshqarmalarga taqdim etiladi. Audit xizmati tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha filiallar tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularga amal qilinishini nazorat etishi lozim.

Audit tekshiruvlarini o'tkazishdan maqsad, Bosh bankni va uning barcha filiallari faoliyatini auditdan o'tkazish, banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini nazorat qilish, buxgalteriya, operatsiya va ma'muriy nazorat tizimlari monandligini baholash, filiallar faoliyatini tahlil va nazorat qilish orqali Bank kengashi va Bank boshqaruviga bank faoliyati bo'yicha belgilangan istiqbol va maqsadlarga erishishda ko'maklashishdan iborat.

Bosh bank va filiallar faoliyatini auditdan o'tkazish Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan "Audit xizmatining filiallar faoliyatini auditdan o'tkazish bo'yicha tekshirish rejasiga" asosan amalga oshiriladi va ushbu hujjat maxfiy hisoblanadi. Tekshirish rejasiga Bosh bank va uning barcha filiallari kiritilgan bo'lishi lozim. Filiallarning moliyaviy ahvoli yoxud iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin o'zgargan holatlarda tekshirish rejasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Audit tekshiruvlari audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Filiallarda audit o'tkazish bo'yicha audit xizmati xodimlari safidan audit o'tkazish ishchi guruhi to'ziladi. Ushbu guruh a'zolaridan guruh rahbari tayinlanadi. Guruh rahbari mazkur guruh ishini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi, guruh a'zolariga audit o'tkazish bo'yicha topshiriqlarni taqsimlaydi, ular tomonidan tayyorlangan materiallarni umumlashtiradi va ushbu materiallar uchun javobgar hisoblanadi, tekshirilayotgan filialdagi vaziyat va muammolar haqida vaqti-vaqti bilan Bosh auditorni xabardor etib turadi.

Audit o'tkazish ishchi guruhi tekshirish rejalashtirilgan Bosh bank yoki filial faoliyatini audit tekshiruvidan o'tkazishdan oldin, tekshiriladigan bank

muassasasida uning faoliyati ahvolini tavsiflovchi ilgarigi tekshiruv materiallari bilan tanishib chiqishlari lozim. Bunda mazkur filial asosan qaysi sohalar bo'yicha kamchiliklarga yo'l qo'ygani va bu kamchiliklarning qanchalik bartaraf etilganiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, audit o'tkazilishi ko'tilayotgan filialning Bosh bankka bergan hisobot va ma'lumotlari bilan tanishib chiqishlari lozim va buning uchun ularga tegishli bo'lgan hisobotlar va hujjatlar to'plami Bosh bankning tegishli boshqarma va bo'limlaridan talab qilib olinadi.

Muayyan filial yoki Bosh bankda audit tekshiruvi o'tkazish bo'yicha rasmiylashtirilgan farmoyish asosida amalga oshiriladi. Audit o'tkazish to'g'risidagi farmoyishlar audit xizmati tomonidan alohida kitobda ro'yxatga olib boriladi.

Farmoyishda audit o'tkazilayotgan filialning to'liq nomi, tekshirish davri va muddatlari, audit tekshiruviga qatnashuvchi audit xizmati xodimlarining ro'yxati, guruh rahbari aniq ko'rsatilishi shart. Audit o'tkazilishi uchun rasmiylashtirilgan farmoyishlar filiallar kassa tarmoqlarida to'satdan tekshiruv o'tkazishni ta'minlash maqsadida bir martalik ruxsatnoma rasmiylashtirmasdan hamda kassa uchun mas'ul mansabdor shaxslarning bittasi bo'lgan taqdirda ham filiallar kassalarida tekshiruv o'tkazish huquqini beradi.

Muayyan bank muassasasida audit o'tkazish to'g'risidagi farmoyish bilan mazkur bank rahbari tanishtirilishi lozim. O'tkazilayotgan audit tekshiruvining belgilangan tartibda va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash uchun audit xizmati xodimlariga tegishli shart-sharoit yaratib berilishiga filial rahbarlari mas'ul hisoblanadi. Auditorlarning kompyuter tizimidagi dasturiy ta'minotlar va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari cheklanmasligi lozim.

Auditorlar tomonidan talabnomaga asosan talab qilinadigan barcha hujjatlarning o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun filiallar xodimlari mas'ul bo'ladi. Audit o'tkazilishi bo'yicha talab qilinadigan hujjatlarning o'z vaqtida taqdim qilinmasligi bevosita audit tekshiruvi muddatining uzayishiga ta'sir ko'rsatadi va ushbu holat mazkur filial xodimlarining mas'uliyatsizligi deb baholanadi.

Alohida bank operatsiyalari va hujjatlari tekshirilayotganda rasmiy so'rovnoma orqali bank mijozlaridan zarur ma'lumotlar, tasdiqnomalar va hujjatlar

ham talab qilib olinishi mumkin. Filiallar faoliyati auditdan o'tkazilayotganda ayrim holatlarda hujjatlardan nusxalar olinishi, zarur hollarda esa belgilangan tartibda hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng, hujjatlarning asl nusxalari olinishi mumkin. Auditorlar tekshiruv o'tkazish jarayonida ayrim holatlar bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan filial xodimlaridan tushuntirish xatlari talab qilishi mumkin.

Audit tekshiruvining so'nggi bosqichida tekshiruv materiallari umumlashtirilib, dalolatnoma rasmiylashtiriladi va ushbu hujjat auditda qatnashgan barcha audit xizmati xodimlari hamda filial rahbariyati tomonidan imzolanadi. Filial rahbarlari ushbu materiallarni imzolashdan bosh tortgan hollarda esa yozma ravishda tushuntirish berishlari shart.

Amaliyot kassalari bo'yicha tuzilgan materiallar maxfiyligi tufayli alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi hamda ushbu hujjat filial kassasida ishtirok etgan auditorlar va kassa uchun mas'ul filial xodimlari tomonidan imzolanadi. Ushbu hujjatning birinchi nusxasi filialning maxsus bo'limi orqali Bosh bankka jo'natiladi hamda uning to'laligicha va o'z vaqtida jo'natilishi uchun filial rahbarlari javobgar hisoblanadi.

Audit tekshiruvlari tugashi bilan audit xizmati tomonidan qisqa muddat ichida auditorlik hisobotlari tayyorlanadi. Ushbu hisobotlar bevosita Auditorlik qo'mitasiga taqdim etiladi. Boshqarmalarga tegishli bo'lgan audit xizmatining materiallarida aks ettirilgan kamchiliklar yuzasidan ularni bartaraf etish bo'yicha qanday tadbirlar ishlab chiqilishi, kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan qanday choralar ko'rilishi kerakligi haqida ikki kun muddat ichida tegishli boshqarmalar o'z fikr-mulohazalarini yozma ravishda audit xizmatiga taqdim etishlari lozim. Kredit operatsiyalari auditi Markaziy Bankning me'yoriy hujjatlariga va bevosita tijorat banking kredit siyosatiga asoslangan holda o'tkaziladi.

Kredit portfeli tahliliga asoslangan holda audit muayyan berilgan kreditga banking tavakkalchiligini aniqlaydi. Ushbu bosqich alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki auditorlar tavakkalchilik darajasiga qarab aniq kreditga nisbatan

hisoblangan zahirani ko'paytirish yoki kamaytirishga haqlidir, bu esa bank aktivining sifatida o'z ifodasini topadi.

Kredit portfelining holatini tahlil qilishda auditor kredit berish bilan bog'liq bir nechta ko'rsatkichlarni, ya'ni berilgan kreditning o'ziga xos xususiyati, uning ta'minlanishi, foizlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida daromad hisobvaraqlariga olinishi, qaytarilish muddatlari va hokazolarni o'rganishi lozim bo'ladi.

Kredit portfeli bo'yicha quyidagilar auditdan o'tkaziladi: kredit olish uchun berilgan buyurtmalarning maxsus kitobda ro'yxatdan o'tkazilish tartibi; ajratilgan kreditlar bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, hujjatlarning to'liqligi, kredit qaytarilgan holatda hujjatlarning belgilangan tartibda arxivga topshirilishi; kreditlarning har bir turiga ochilgan analitik hisoblarning yuritilish tartibi; kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z vaqtida va to'g'ri hisoblanishi, ularning tegishli hisobvaraqlarga o'z vaqtida o'tkazilishi; muddati o'tkazib yuborilgan kreditlar hisobini o'z vaqtida buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish tartibi; berilgan kreditlar uchun talab qilib olingan muddatli majburiyatnomalarning to'liqligi va ularning hisobi; kredit portfeli tekshirilgandan so'ng, yo'l qo'yilgan xatoliklarni ko'rsatib berish hamda ularni bartaraf etish va kredit portfeli sifatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'рни samarali bo'lishida boshqaruvning tarkibiy qismi bo'lgan ichki auditga nazoratning zarur elementi sifatida yondoshish zarurdir. Zero, ichki audit banklarning moliyaviy holatini va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholashgan, bozor ehtiyojlarini aniqlash va shu tariqa banklarning ish samaradorligini oshirishda ular uchun bozorda samarali raqobat muhitini yaratishda katta yordam beradi. Tadbirkorlik faoliyati jarayonida yuqori darajada daromad olish, iqtisodiy sub'ektlar rivojlanishining optimal traektoriyasiga erishish uchun eng maqbul vositalar zarurligi bois, aksariyat mulkdorlar ichki audit xizmatining mavjud bo'lishidan manfaatdordirlar.

Audit xizmatining ish dasturi Bosh bank yoki filiallar oldida turgan barcha (kredit, operatsion, likvidlilik, foiz stavkalari, valyuta, huquqiy o'z mavqeini yo'qotish) tavakalchilik darajalarini baholab berishga qaratiladi.

Bosh bank yoki filiallar faoliyati audit tekshiruvidan o'tkazilganda, quyidagi masalalarni yoritib berishi lozim: O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga rioya qilinishini; bosh bank yoki filialning iqtisodiy-me'yoriy ko'rsatkichlarini, mablag'larning etarliligini, likvidlilikini aktivlar sifatini; kreditorlar va omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olayotganini; banklarning depoziti, kredit, pul muomalasi, hisob-kitob, kassa, valyuta va boshqa operatsiyalari bo'yicha o'tkazilgan amallarning to'g'ri va asoslanganligini; ichki nazorat ahvolini, tuzilayotgan hisobotlarning o'z vaqtida va to'g'ri tuzilib, tegishli joylarga taqdim etilayotganini; xodimlarning ijro intizomini; filial rahbarlarining bank ishini qay tarzda tashkil qilinganini hamda bank daromadlarini oshirish va xarajatlarini kamaytirish borasida olib borayotgan ishlarni aniqlashdan iborat.

Tijorat banklarni ichki va tashqi auditdan o'tkazishda asosan tijorat banklarning quyidagi faoliyati amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi auditdan o'tkaziladi: o'z mablag'larini audit; kredit portfelini auditdan o'tkazish; kassa ishini auditdan o'tkazish; pul muomalasi ishini auditdan o'tkazish; jamg'arma ishlarini auditdan o'tkazish; qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini auditdan o'tkazish; valyuta operatsiyalarini auditda o'tkazish; ichki bank operatsiyalari va soliqlarning o'z vaqtida to'lanishi audit; banklararo hisob kitoblar munosabatining audit; bank daromadi, foyda va xarajatlarini audit.

Tijorat banklarida boshqaruv tizimi uchun ichki audit faoliyatini takomillashtirishning zarurligi va afzallik jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi: tashqi auditga nisbatan kam xarajatliligi; qonunchilikka doimiy rioya qilinishining kafolatlanishi; ichki auditorlar xizmatidan muntazam foydalanish imkoniyati; ichki auditorlarning bankdagi vaziyatdan, boshqaruv uslubidan, bankda qabul qilingan siyosatdan xabardorligi; auditorlar orqali bank bo'limlaridagi yuqori malakali

mutaxasislarning tekshiruvlarga jalb qilinishi; ilg'or texnologiyalar va ish uslubini joriy etishning rag'batlantirilishiga ko'mak beruvchi tizim ekanligi.

Tahlillar ko'rsatishicha, retrospektiv xususiyatga ega bo'lgan, auditorlik faoliyati moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini me'yoriy hujjatlarga muvofiq to'g'ri aks ettirilganini tekshirishga qaratilgan bo'lib boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun etarli emas. Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar auditorlardan iqtisodiy qarorlar qabul qilish bilan asos bo'la oladigan, tijorat bankining holatini aks ettiradigan ma'lumotlarni olishga umid qiladilar. Fikrimizcha, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida audit jarayoni, yo'nalishi va usuliga ko'ra ikki yo'nalishdagi vazifalarni o'zida mujassam etishi lozim.

Ichki audit xizmatining faoliyati ikki yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi, bank faoliyati natijalarini, ikkinchisi, bank faoliyati samaradorligini baholashdan iborat.

Ichki auditning asosiy vazifasi, bank boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniylik darajasini hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, bank samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflarni bank boshqaruviga taqdim etishdan iborat.

Bank tizimida auditorlik faoliyatini tashkil etish, uni amalga oshirishning tegishli tartib-tamoyillari va uslubiyotini takomillashtirish, ichki auditni amalga oshirish shakllari, yo'nalishlarini aniqlash, hamda uning boshqa belgilariga ko'ra tasniflashni taqozo etadi. Tadqiqot ishida tijorat banklarida ichki auditning bosqichlaridan kelib chiqqan holda tasniflash belgilari va mezonlari aniqlashtirilgan.

O'zbekistonda tijorat banklari ichki audit tizimi faoliyati «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunga, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi qaror, nizom va auditorlik standartlari kabi me'yoriy hujjatlarga asoslangan bo'lib, ular asosan tashqi auditorlik firmalari uchun mo'ljallangandir. Bunday holat ichki auditning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

2.1-jadval.

Tijorat banklarida ichki audit yo'nalishlari va

vazifalarining guruhlanishi⁸.

Audit yo'nalishi	Tekshiruv usuli	Ichki auditning vazifalari
Faoliyat natijalarini baholash	Amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini baholash usuli	Bankning tadbirkorlik faoliyatini, ishonchligi va barqarorigini, mulkdorlar kapitalining daromadlilikini baholash. Bank risklarini inobatga olgan holda auditdan maqsadli va tizimli foydalanish.
Faoliyat samaradorligini baholash	Bank faoliyati ko'rsatayotgan iqtisodiy muhitni tahlil qilish va baholash	Tahlilda tekshiruvning maqsadi va uslublarini aniqlash, moliyaviy ahvolini baholash va rivojlanish dasturlarini amaliyotga tadbqiq qilish masalalariga alohida e'tibor berish. Aktivlar butligini o'rganish, elektron dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy tomonlarini tekshirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va turli masalalar bo'yicha maslahatlar berish.
Faoliyat camaradorligini baholash	Boshqaruv faoliyatini baholash	Menejment funktsiyalari va bankning boshqaruv sifatini baholash, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish. Audit usullarini kengaytirish va takomillashtirish dalillari olish, aktivlar butligini tekshirishning nisbiy va kompyuter usullarini qo'shimcha ravishda rivojlantirish

Rivojlangan mamlakatlar amalyotida qo'llanilayotgan standartlaridan kelib chiqqan holda, auditning mavjud huquqiy bazasini takomillashtirish, ayni ichki auditorlik standartlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbqiq etish maqsadga muvofiq. Ta'kidlab o'tish joizki ushbu standartlarni joriy qilish jarayoni bosqichma – bosqich amalga oshirilgan holda, uning dastlabki bosqichida audit xizmati tizimidagi holat va xodimlarning malakalariga e'tibor qaratish, keyingi bosqichda esa bevosita auditorlik faoliyatini takomillashtirish orqali amalga oshirish mumkin.

2.2.-jadval

Xalqaro ichki audit standartlari⁹

Tartib raqami	Standartlarning nomi
Standartlarning sifat tavsiflari	
1000	Maqsadi, huquqi va majburiyatlari
1100	Mustaqillik va ob'ektivlik
1200	Malakali va ish jarayoniga professional yondashuv

⁸ Musaev X. Audit. Darslik. –T.:2003y. 38-b.

⁹ Manba: Xalqaro ichki auditorlik standartlari. M.: Xalqaro ichki auditorlik instituti. 2009 y. 16-b.

1300	Kafolat va ichki audit sifatini oshirish dasturi
Faoliyat standartlari	
2000	Ichki audit jarayonini tashkil qilish
2100	Ichki audit faoliyatining mohiyati
2200	Audit topshirig'ini rejalashtirish
2300	Auditorlik tekshiruvini bajarish
2400	Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlarni taqdim etish
2500	Auditorlik tekshiruvi natijasida olib borilgan harakatlarning nazorati
2600	Bank rahbariyati tomonidan risklarning qabul qilinishi

Ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish, eng avvalo, uning kontseptual asosini yaratish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, ichki nazorat izimi va uslubini shakllantirishni taqozo qiladi. Tabiiyki, ushbu sifat ko'rsatkichlarsiz bank tizimida joriy qilingan ichki audit faoliyatini baholash mumkin emas.

Bazel qo'mitasining tavsiyalariga ko'ra, ichki audit xizmati bank faoliyati ustidan mutassil nazorat olib borishning tarkibiy qismi hisolanadi. Respublikamiz tijorat banklarida ichki audit xizmati muhim o'rin egallagan bo'lib, uning faoliyati Markaziy bank tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan Nizomda tekshiruvni tashkil etish va olib borish jarayonlari umumiy ko'rinishda yoritib berilgan. Respublikamiz iqtisodiyoti erkinlashuvi sharoitida ichki audit faoliyati samaradorligini oshirishga audit qo'mitasi, tashqi auditorlar, xodimlar mustaqilligi va malakasiga bo'lgan talablar kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ichki auditorlik faoliyati standartlarining joriy etilishi ushbu tizimning sifat tamoyillarini takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish va tashqi auditorlarning ish hajmini kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

2.2. Tijorat banklarida operatsion faoliyatning ichki auditi

Aktivlarning moliyaviy xisobotlarda aks ettirilgan qiymati auditorlar tomonidan muntazam ravishda haqiqatda mavjud bo'lgan aktivlar qiymati bilan solishtiriladi va aniqlangan har bir tafovutlar bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rilishi yuzasidan auditor o'z takliflarini bayon etadi.

Kassa operatsiyalari ichki auditi tijorat bankining aktivlari auditida auditorlar tomonidan tektiriladigan dastlabki ob'ekt xisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 27 iyunda 1831-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 17 maydagi 12/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan

“Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir Yo’riqnoma” bo’yicha ish tashkil etilganligini va kassa amallari bo’yicha ichki tartiblarga rioya etilishi tekshiriladi.

Bank kassalaridagi mavjud pul va boyliklar to’satdan, bir kunning o’zida, barcha boyliklar, ular bilan o’tkaziladigan operatsiyalar, pul va boyliklar sanash chog’ida but saqlanishini to’liq audit qilish imkoniyatini ta’minlaydigan hamda boyliklar yatiriliti, pul va boshqa boyliklardan kamomad borligini yashirishga imkon qoldirmaydigan izchillikda audit qilinadi.

Audit qilish boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo’lgan mansabdor shaxslarning ishtirokida o’tkazilishi hamda bank muassasalarida operatsiyalar amalga oshirilishining odatdagi maromini bo’zmasligi kerak.

Kassa va kassa operatsiyalarini ichki audit qilishda auditor quyidagilarni aniqlashi zarur:

- kassa operatsiyalari kirim-chikim orderlari bilan rasmiylat- tiriliti, o’z vaqtida va to’g’ri to’zilishi, pul qabul qilingan va berilgan sanalar, hamda uning asosi ko’rsatilishi, chiqim hujjatlarida tegishli imzolari borligi;

- qa’tiy hisobda turadigan blankalar hisobinining yuritilish tartibi;

- savdo tushumlarining kechki kassalarga qabul qilinishi va ularning qayta sanat kassasiga to’g’ri o’tkazilish tartibi;

- kassa holatiga baho berishi;

- kassa jurnalining o’z vaqtida to’g’ri va to’liq yuritilishi;

- garov mulki va kafilliklarning hisobi va ularning saqlanishi;

- deponentdagi summalar bankka to’liq va o’z vaqtida topshirilishi, kassadagi naqd pul kundalik qoldig’ining bank belgilab bergan limitiga rioya qilinishi va ular but saqlanishi qanday ta’minlangani;

- kassirning moddiy javobgarlik haqida kassa operatsiyalarini o’tkazish to’g’risidagi nizomga muvofiq belgilangan shaklda to’zilgan majburiyatnomasining mavjudligi;

- kassa hujjatlari audit o’tkazilayotgan davr bo’yicha to’liq tekshirishdan o’tkaziladi. Kassa hujjatlarini tekshirilishi birdaniga kassa, hamda moliya

tartiblariga rioya qilinishi tektirilishi hisoblanadi;

Auditor tomonidan kassa holatini audit qilish jarayonida begona shaxslar tomonidan kassa tarmog'i joylashgan joyni ko'zatlari va o'rganishlari uchun imkoniyat yaratilmagan bo'lishi lozim. Ayniqsa kassa tarmog'iga kirish eshigining ish kuni davomida ichkaridan o'zi yopilib qoluvchi qulf bilan berkitilgan bo'lishi hamda unga tashqarini ko'rish uchun maxsus tuynuk o'rnatilganini, kassa xodimlari o'zlarining shaxsiy qiyimlari, sumkalari va qimmatliklarini saqlash uchun alohida xonaning mavjudligi, operatsion kassalarning kabinalari o'rtasida darchalar mavjud bo'lsa, ularning har ikkala tomoniga qulfovchi moslamalar o'rnatilishi lozimligini, pul saqdash omborining temir etishlari, xonada mavjud stellaj va seyflarning holati va har bir valyutaning alohida seyflarda saklanishi uchun yaratilgan sharoitlarni, shuningdek, kassa bo'limi kalitlarining tegishli rahbar xodimlarda saqlanishini alohida tartibda tekshiradi.

Bugungi kunda kassa operatsiyalari auditida aniqlangan asosiy xato va kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- joylarda filialning "Chakana biznes" bo'limi tarkibidagi aholi omonatlari talabini qondirishga mo'ljallangan operatsion kassalarga naqd pullar naqd pul olish bo'yicha talabnomalar shakllantirilmasdan pul mablag'lari olib o'tilgan;

- ayrim hollarda kassa hujjatlarida yo mijoz, yoki kassa xodimlarining imzosi mavjud emas;

- mijozlarga chek orqali naqd pul berilganda, ular tomonidan ishonchli vaqil nomiga naqd pulni olish ishonchnomalarining mavjud emasligi, imzolarning mos kelmaslik hollari;

- minibanklar tomonidan naqd pul tushumlarining qabul qilinishi;

- mijozlarga nakd pul berilayotganda mijoz tomonidan chekning bank Front ofis bo'limidan Midll ofis bo'limiga va undan keyin kassaga to'g'ridan-to'g'ri taqdim etilishi ko'zatlilmoqda;

- cheklarning talon qismi kassa mudiri tomonidan o'z vaqtida tikilmagan va yoki umuman tikilmagan;

- mini banklarga madad pullarini etkazib berish bankning foydalanishda

bo'lgan xizmat avtomashinalari orqali mustaqil ravishda etkazilib berilishi hollari. Valyuta mablag'lari bosh bank farmoyishiga asosan Toshkent shaxridan viloyat filiallariga samaliyotda olib kelinmoqda, biroq aeroportdan filial kassa tarmog'iga ham bankning foydalanishda bo'lgan xizmat avtomashinalari orqali mustaqil ravishda etkazilib berilishi hollari ko'zatlilmokda;

- aksariyat yuridik shaxslardan kassa buyurtmanomalari olinmagan holda aylanma kassadagi nakd pul limiti asossiz ravishda urnatilmokda.

Yukoridagi sanab o'tilgan kamchiliklar asosan aktiv operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan operatsion risk omilini yuzaga chiqarmoqda.

Tijorat banklari kassa amaliyotlarida ko'zatlilayotgan yana bir kamchilik kassa mudiri va kassirlar tomonidan qabul qilib olingan va topshirilgan pul summalarini o'zida aks ettiruvchi 155-shakldagi kitobning umuman yuritilmasligi ham tijorat banklarida kassa ishlari bo'yicha to'g'ri ish tashkil etilmayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda 1831- sonli yuriqnomaning 229 bandida keltirilgan talablarga, ya'ni kunlik kassa hujjatlarining shakllantirilish tartibida aniqlanayotgan kamchiliklar bo'yicha banklarda ichki nazorat va sunggi nazorat tizimini kuchaytirish kabi tavsiyalar beriladi.

Valyuta operatsiyalarining ichki auditida - tijorat banklarida valyuta almashtiruv punktlari faoliyatlari bo'limning eksport va import faoliyatiga xizmat ko'rsatish hamda valyuta mablag'larini qayta baholash operatsiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda operatsiyalarini tekshirishda asosiy etibor quyidagilar ko'zatu ostiga olinadi:

- valyuta hisobraqamlarini ochilish tartibi va hujjatlarning to'liqligi;

- eksport va barter kontraktlarini hisobga olish bo'yicha ochilgan hisobraqamlari bo'yicha buxgalteriya xisobining to'g'ri olib borilishi;

- chet el valyutalarida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilgani;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarning xisoblanishi va hisobning to'g'ri olib borilishi.

- valyuta xisobvarag'idagi valyuta mablag'larining o'z vaqtida va to'g'ri qayta

baholanishi:

- eksport va import shartnomalarini hisobga olishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Markaziy bankning meyoriy hujjatlariga qat'iy amal qilinishi;

- boshqa bank muassasalaridan inkassatorlar orqali kelgan chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari to'liq kirim qilingani, aloqa organlaridan chet el valyutasi bo'lgan jo'natmalarni olish tartibiga rioya qilinishi tekshirish;

- rezidentlarga chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini sotishning amaldagi qoidalari va me'yorlariga rioya etilishi;

- valyuta ayirboshlash shaxobchasi ishining to'g'ri tashkil etilganligi, jumladan valyutaning hisobi to'g'ri yuritilish bo'yicha tegishli daftarda o'z vaqtida va to'g'ri qayd etilishini tekshirish;

- sotiladigan valyuta summasi hisob-kitob qilinganining to'g'riligi, chet el valyutasini sotish operatsiyalari sotilgan nakd chet el valyutasi hisobini yuritish bo'yicha tegishli shakldagi daftarda o'z vaqtida va to'g'ri qayd etilishi tekshiriladi;

- sotiladigan valyuta ayirboshlash shaxobchaining sotilgan chet el valyutasi hisobini yuritish daftarida to'g'ri ko'rsatilgani;

- chet el valyutasini respublikadan tashqariga olib chiqishdagi ruxsatnoma to'g'ri rasmiylashtirilgani;

- valyuta sotilganda vositachilik haqi undirilgani;

- xizmat safari xarajatlari uchun tashkilotlar va korxonalariga chet el valyutasi sotishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi;

- chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini O'zbekistan Respublikasining boshqa banklariga yoki bevosita chet el bankiga jo'natish bo'yicha operatsiyalarning to'g'riligi va asosli ekanligi;

Nakd chet el valyutasi va to'lov hujjatlari bilan bog'liq inkasso operatsiyalari quyidagi hujjatlar asosida audit qilinadi:

- rezident va norezidentlardan nakd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini sumda, hamda chet el valyutasida inkasso uchun qabul qilishning to'g'riligi;

- inkasso operatsiyalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, hamda uning tegishli hisobvaraqlarda hisobga olinishi.

Pul muomalasi ishlarini ichki auditi - jarayonida audit tekshiruvi o'tkazilayotgan davrda amalda bo'lgan pul-kredit siyosati va Markaziy bankning amaldagi yuriqnomalariga muofiqlik darajasi tekshiriladi va bunda auditor tomonidan quyidagi

- pul muomalasi ishining qay darajada tashkil etilgani;
 - pulning kassaga qaytish koefitsentining asosli darajadiligini tekshirish;
 - tashkilotlar tomonidan kassa buyurtmalarining o'z vaqtida va to'liq yig'ib olinishi;
 - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan naqd pul tushumlarining bankka topshirilish hisobini audit qilish;
 - tashkilotlarga ish haqi berish jadvallarining mavjudligi va unga amal qilishnishi;
 - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kassa qoldigi limitlarining to'g'ri va to'liq o'rnatilishi;
 - savdo va nosavdo tashkilotlariga naqd pul tushumlarining to'g'ri o'rnatilishi;
- kabi holatlar o'rganiladi va to'zilgan kassa prognozi O'zbekiston Respublikasi MB Boshkaruvining 2005 yil 20 avgustdagi 18/1-son qarori bilan tasdiklangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 10 oktyabr 1518-son bilan ruyxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida banklar tomonidan pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to'g'risida»gi yuriqnomaga asosan amalga oshirilganligi tekshiriladi hamda aniqlangan xatolar bo'yicha tegishli choralar ko'rilishi bayon etiladi.

2.3. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini

ichki auditdan o'tkazishning tahlili


Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini ichki auditdan o'tkazishda yangi talablar qo'yilmoqda. Tijorat banklarida ichki audit faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy

bankining 2000 yil 22 dekabrda”Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo’yiladigan talablari to’g’risida”gi Nizomga muvofiq tartibga solinadi.

Respublikamizning bozor munosabatlariga o’tishi yangi sharoitda faoliyat ko’rsata oladigan tijorat banklari tizimini shakllantirishni taqozo etdi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida turli mulkchilikka asoslangan tijorat banklari tizimi vujudga keldi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimining isloh qilinishi natijasida xalqaro standartlar talablariga ko’ra, ularning boshqaruv infratuzilmasi, nazorat tizimini shakllantirish bilan bog’liq muammolarni xal qilishga erishildi.

Bazel qo’mitasining talablariga binoan bank boshqaruvi faoliyati va nazorati tizimini evolyutsion yo’l bilan takomillashtirish borasida yagona davlat siyosati yurgizilib, qator me’yoriy hujjatlar majmui yaratildi. Natijada bank amaliyotiga tashqi nazorat monitoringi va mustaqil audit kabi tushunchalar kirib keldi.

Bunda, bank moliyaviy barqarorligiga ta’sir etadigan barcha omillar: kapital etarliligi, aktivlar va kapitalning daromadlilik darajasi, aktivlar dinamikasi, kredit portfelining risk darajasi, investitsiya portfeli kabi bir qator ko’rsatkichlarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilinishi kerak. Moliyaviy hisobot ko’rsatkichlar tahlili turli banklarning faoliyatini qiyosiy taqqoslash hamda yaqin o’tgan 2 yillik davrdagi o’zgarish jarayonini o’rganish, bankning istiqboldagi moliyaviy holatini baholash imkoniyatini beradi. Ushbu ko’rsatkichlar tahlilini tijorat banklari misolida tashqi audit yordamida aniqlangan quyidagi ma’lumotlar asosida ko’rishimiz mumkin. Aktivlar sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonida bankning aktivlari, jumladan balansdan tashqari aktivlari tarkibi tahlil qilinadi. Dissertatsiya ishimda albatta, amaliy ma’lumotlardan foydalanishga harakat qildim. Jumladan, AT “Aloqabank” 2013 va 2018 yillar uchun ma’lumotlari asosida jadvallarni tahlil qilgan holda bankning faoliyatiga baho beramiz.



2.1-rasm. 2013-2018 yillarda AT “Aloqabank” aktivlari o’sish dinamikasi¹⁰ (mlrd. so’mda).

Respublikamiz tijorat banklari qatorida AT “Aloqabank” ham o’z ustuvor maqsadlari sifatida kapitallashuv darajasini oshirish, aktivlar sifati, salmog’i va daromadlilikini yaxshilash, mijozlar va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko’tarish orqali bank faoliyatiga doir barcha ko’rsatkichlarning barqaror o’sishini ta’minlash, eng muhimi, mijozlarning bankka bo’lgan ishonchini yanada mustahkamlashni belgilab olgan. 21 yil davomida bank o’zining aktivlari miqdorini oshirish, mustahkam resurs bazasini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish siyosatini qo’llash borasidagi ishlarini izchil davom ettirib kelmoqda. Bank aktivlari 2017 yilda 2 792,2 mlrd. so’mni tashkil etgan bo’lsa, ko’rilgan choratadbirlar natijasida 2018 yil yakunida 5 846 ,6 mlrd. so’mni tashkil qilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 209, foizga o’sishini ko’rsatmoqda.

Bank o’z faoliyati davomida aktivlari miqdorini oshirish, mustahkam resurs bazasini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish siyosatini qo’llash borasidagi ishlarini izchil davom ettirib kelmoqda

2.3-jadval.

¹⁰ "AT Aloqabank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2013-2018 yy.

AT “Aloqabank” aktivlari tarkibi¹¹

(mlrd. so'm)

№	Aktivlari tarkibi	01.01.2018 yil holatiga	01.01.2019 yil holatiga	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	
				+ ; -	%
1	Kassadagi naqd pullar	98,7	100,4	1,7	101,7
	jamidagi ulushi	4,1%	1,8%		
2	Markaziy bankdagi mablag'lar	620,9	462,8	-158,1	74,5
	jamidagi ulushi	32,1%	11,6%		
3	Boshqa banklardagi mablag'lar	269,1	382,2	113,1	142,0
	jamidagi ulushi	5,1%	5,1%		
4	Kredit qo'yilmalar	1627,3	4739,1	3111,8	291,2
	jamidagi ulushi	49,9%	78,6%		
5	Investitsiyalar	9,1	24,1	15	264,8
	jamidagi ulushi	0,4%	0,1%		
6	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	62,9	83,1	20,2	132,1
	jamidagi ulushi ushi	2,3%	1,6%		
7	Boshqa aktivlar	104,2	54,9	-49,3	52,7
	Jamidagi ulushi	6,0%	1,2%		
Jami:		2 792,2	5 846,6	3 054,4	209,4

Yuqoridagi jadval fikrimizni yana bir bor tasdiqlamoqda, ya'ni bank aktivlar tarkibi dinamikasi o'rganilganda 2017 yilda kredit qo'yilmalari jami aktivlarning 49,9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilda 78,6 foizni tashkil qilgan. Demak yil davomida ko'paygan. Ammo, shuni aloxida ta'kidlash joizki aktivlarni boshqarishda aktivlar tarkibi deversifikatsiyasning yuqoriligi turli risklarni vujudga kelishini kamaytiradi.

Bank passivlarini boshqarish bank menejmentining yana bir muhim qismi hisoblanadi. Passivalarni boshqarish amaliyotini samarali olib borish bank likvidliligini barqaror saqlab turishning inikosidir. Bank passivlari sifati resurs bazasini barqarorlik darajasi bilan xarakterlanadi. Shu jumladan, passivlarning samarali diversifikatsiyasi aktiv operatsiyalarni boshqarishda va risklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. AT Aloqabank ham passivlarni samarali boshqarish faoliyatini o'rganish uchun uning majburiyatlari va kapital tarkibi, o'sish dinamikasini o'rganamiz.

¹¹ "AT Aloqabank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2018-2019 yy.

2019 yil 1 yanvar holatiga bankning jami majburiyatlari 4 684,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga (2 393,9 mlrd. so'm) nisbatan 2 290,3 mlrd. so'm yoki 195,7 foizga o'sdi

2.4-jadval.

**AT "Aloqabank" majburiyatlari tarkibi
to'g'risida ma'lumot¹²**

№	Majburiyatlar tarkibi	01.01.2018 yil holatiga	01.01.2019 yil holatiga	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	
				+ ; -	%
1	Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar	1 197,1	801,6	-395,5	66,9
	jamidagi ulushi	50,0%	17,1%		
2	Jamg'arma depozitlar	239,9	231,9	-8	96,7
	jamidagi ulushi	10,0%	5,0%		
3	Muddatli depozitlar	385,5	2 228	1 842,5	577,9
	jamidagi ulushi	16,1%	47,6%		
4	Banklararo depozitlar	322,2	911,6	589,4	282,9
	jamidagi ulushi	13,5%	18,3%		
5	Jalb qilingan kreditlar	118,2	223,9	105,7	189,4
	jamidagi ulushi	4,9%	4,8%		
6	Mijozlarning boshqa depozitlari	117,7	234,7	117	199,4
	jamidagi ulushi	4,9%	5,0%		
7	Boshqa majburiyatlar	13,4	52,5	39,1	391,8
	jamidagi ulushi	0,6%	1,1%		
Jami:		2 393,9	4 684,2	2 290,3	195,7

Bank passivlari tarkibi dinamikasi o'rganilganda 2018 yildako'rish mumkinki muddatli depozit ko'proq qismni ya'ni 47,6 foizni, keyingi o'rinda banklararo depozitlar 18,3 foizni tashkil qilmoqda. Shuningdek depozitni jalb qilish boshqa banklarga nisbatan yuqori tendentsiyaga ega. Ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki bankda Respublikamiz boshqa banklariga nisbatan omonatlarga taklif etilayotgan foiz to'lovlari 2018 yilda yuqori bo'lgan, shu sababdan ham ushbu yilda muddatli depozitlar jami passivlarning 47,6 foizini tashkil qilgan.

Tijorat banklari iqtisodiyotda mavjud bo'sh pul mablag'ini jalb qilib aktiv operatsiyalarga joylashtiradi, bu orqali qo'shimcha qiymat yaratilishida samarali mexanizm rolini ijro etadi, bunda resurslarni samarali jalb qilish tijorat banklari uchun asosiy va birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan vazifasi hisoblanadi.

¹² "AT Aloqabank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2018-2019 yy.

Banklarning depozitlar va banklararo kreditlarni jalb qila olish qobiliyati, bir tomondan boshqa qatnashchilari tomonidan qanchalik tan olinishi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan uning likvidliligiga bog'liq.

Bank likvidligi kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda bankning shartnoma asosida o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi mumkinligi bilan belgilanadi. Bank majburiyatlarini bajarishi uchun asosiy mablag' manbalari bo'lib kassa qoldig'ida aks ettirilgan naqd pullar va vakillik hisobvarag'idagi (markaziy bank va boshqa tijorat banklaridagi) mablag'lar, tez naqd pulga aylanuvchi aktivlar, zarur hollarda banklararo bozor yoki Markaziy bankdan olinadigan banklararo kreditlar hisoblanadi.

2018 yil davomida AT «Aloqabank» tomonidan kredit portfelini diversifikatsiya qilish siyosatini qo'llagan holda, kreditlash jarayon-larining asosiy yo'nalishini belgilashda asosiy e'tibor iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, manzilli va hududiy dasturlarga kiritilgan loyihalarni, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining istiqbolli loyihalarini moliyalashtirishga qaratildi. Aholining keng qatlami, shu jumladan, yosh oilalarning iste'mol ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida ajratilgan iste'mol kreditlari fuqarolarning turmush farovonligini oshirishga munosib xizmat qilmoqda.

Respublikamiz barcha unversal banklari qatorida AT "Aloqabank" ham amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq har yilda bir marta o'z kredit siyosatini belgilaydi va u asosida mijozlarni kreditlash jarayonida keng qamrovli bank xizmatlarini ko'rsatish, bank faoliyatining kredit munosabatlari sohasida asosiy strategiya va taktikasini belgilaydi. Maqsad kreditlash jarayonida amaldagi qonunchilik talablariga rioya etish, umumiy iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan kreditlash tartiblarining bir xilligini kafolatlash, tavakkalchilikni muntazam ravishda diversifikatsiyalash, bank likvidligi va foydaliligini ta'minlashdan kelib chiqadigan kredit samaradorligini belgilashdan iborat.

2019 yil 1 yanvar holatiga yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar salmog'i 3 773,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga ajratilgan

kreditlar qoldig'i yil boshiga (1 377,4 mlrd. so'm) nisbatan 2 395,8 mlrd. so'mga oshib, o'sish 273,9 foizni tashkil etdi.

2.5 - jadval.

**AT "Aloqabank" tomonidan yuridik shaxslarga
ajratilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot¹³**

(mlrd. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	01.01.2018 yil holatiga	01.01.2019 yil holatiga	O'tgan yilning shu davriga nisbatan	
				(+ ; -)	%
Mulkchilik shakli bo'yicha:					
1	Xususiy korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga	843,9	2 760,5	1 916,6	327,1%
2	Davlat korxonalariga	217,6	535,4	317,8	246,1%
3	Byudjet va nodavlat korxonalariga	22,6	32,0	9,3	141,2%
4	Qo'shma korxonalariga	293,3	445,3	152,0	151,8%
Jami:		1 377,4	3 773,2	2 395,8	273,9%

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning 240,9 mlrd. so'm yoki 6,4 foizini qisqa muddatli va 3 532,3 mlrd. so'm yoki 93,6 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

Yuridik shaxslarning kredit qo'yilmalari hajmini oshirish bo'yicha 2018 yilga mo'ljallangan biznes-reja ko'rsatkichi (2 030,0 mlrd. so'm) 1 743,2 mlrd. so'mga yoki 185,9 foizga bajarildi.

Hisobot davrida bank tomonidan yuridik shaxslarga jami 3 217,4 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi hamda 821,6 mlrd. so'm miqdoridagi kreditlar grafik asosida qaytarildi.

2018 yil mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan 1 227,8 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Mazkur maqsad uchun ajratilgan kreditlar o'tgan yilga (612,7 mlrd. so'm) nisbatan 615,1 mlrd. so'mga oshib, o'sish 200,4 foizni tashkil etdi.

Ajratilgan mazkur kreditlar hisobiga 3 296 ta yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi investitsion jarayonlarni xususan, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan bog'liq loyihalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida

¹³ "AT Aloqabank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2018-2019 yy.

2 046,7 mlrd. so'm miqdorida investitsion loyihalarga kreditlar ajratildi. Mazkur maqsad uchun ajratilgan kreditlar o'tgan yilga (681,6 mlrd. so'm) nisbatan 1 365,1 mlrd. so'mga oshib, o'sish 300,3 foizni tashkil etdi.

2018 yil davomida bank kredit portfelini sog'lomlashtirish, muammoli kreditlar salmog'ini qisqartirish va kredit xatarini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida, muammoli qarzdorliklar salmog'ini sezilarli darajada qisqartirishga erishildi.


Jumladan, 2019 yil 1 yanvar holatiga kredit portfeli tarkibida muddati o'tgan kreditlar qoldig'i 4,2 mlrd. so'm yoki kredit portfelining 0,1 foizini tashkil etdi.

2018 yil davomida muammoli kreditlarni qoplash maqsadida bank balansiga olingan mol-mulklar hisobidan jami 6 871,5 mln. so'mlik mulklarni sotilishi ta'minlandi.

2019 yil 1 yanvar holatiga ushbu turdagi aktivlar salmog'i 169,4 mln. so'mni tashkil etdi.

Hozirda bank balansiga olingan mulklarni qisqa muddatda to'liq sotilishini ta'minlash yuzasidan barcha zaruriy choralar ko'rilmoqda.

2019 yil 1 yanvar holatiga jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 969 966,4 mln. so'mni (*jami kredit qo'yilmalarining 20,4 foizi*) tashkil qilib, 2018 yil uchun belgilangan reja (*704 000 ,0 mln. so'm*) 137,8 foizga bajarildi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i yil boshiga nisbatan 714 848,7 mln. so'mga oshib, o'sish 380,2 foizni tashkil etdi.




2.2-rasm. 2013-2018 yillarda AT "Aloqabank" kredit portfeli

o'sish dinamikasi¹⁴ (mlrd. so'mda).

Yuqoridagi sanab o'tilgan kredit turlar ya'ni kredit siyosatiga asosan bankda 2018 yil kreditlar ajratilgan va 2018 yil 31 dekabr holatiga bank aktivlarining 3773,2 mlrd. so'mi yoki 70,0 foizi kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri kelgan. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'tgan yilning shu davriga (1632,0 mlrd. so'm) nisbatan 2141,2 mlrd. so'mga oshib, o'sish 43,25 foizni tashkil etgan.

Xozirgi kunda AT "Aloqabank" nafaqat aloqa sohasi tashkilotlariga balki, iqtisodiyotning boshqa tarmoq korxonalariga ham yirik kreditlar ajratib respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda samarli hissasini qo'shib kelmoqda.



2.3-rasm. Alobank kredit portfeli tarkibi¹⁵ (foizda).

2.3-rasmda Alobankning kredit portfeli yuqori diversifikatsiyaga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bir tarmoq uchun ajratilgan kreditlar 25% dan oshirmaslik maqsadga muvofiq ammo, yuqoridagi ma'lumotlardan Alobank ishlab chiqarish uchun jami portfelinin 32%ni tashkil qilayapti. Respublikamiz ba'zi banklarida masalan O'zsanoatqurilish banki kreditlarining qariyb 80% sanoat tarmog'iga ajratilgan. Bu esa o'z navbatida kelgusida risk darajasi havfini yuzaga keltiradi.

Bank faoliyatining bir yo'nalishga bog'lanib qolishi, bozordagi o'zgarishlarni bank faoliyatiga ta'sirini oshiradi. Bozordagi o'zgarishlarni tasodifan yuz berishi, bankning daromadlar oqimining past bo'lgan vaziyatda bank moliyaviy barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bankning foydalilik darajasi rentabellik

¹⁴ "AT Alobank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2013-2018 yy.

¹⁵ "AT Alobank" yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi, 2019 yy.

ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Rentabellik ko'rsatkichlari boshqa faoliyati o'xshash bo'lgan banklar guruhi bilan taqqoslanadi.

Bankning o'sish istiqbollari tahlil qilinayotganda uning milliy va xalqaro bank xizmatlari bozorida faoliyatining ko'lamligini aniqlovchi omillar ko'rib chiqiladi. Bu omillarni o'rganish bank faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlashga imkon berib, bankning moliyaviy faoliyati natijalariga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Bankning ichki bank xizmatlari bozorida o'rnining mustahkamligi va uning bank xizmatlari narxlariga ta'sir eta olish imkoniyati ham baholanib, bunda bankning jami aktivlar, xususiy kapital, kredit portfeli va mijozlarning depozit pul mablag'lari hajmi bo'yicha bozordagi mavqei ko'riladi.

Umuman olganda, tijorat banklari moliyaviy hisobotlarini amaliy ma'lumotlar asosida koeffitsientlar yordamida tahlil qilish undan barcha foydalanuvchilarga (sarmoyadorlar, kreditorlar, omonatchilar va boshqalar) uning faoliyat shaffofligi va ichki nazorat samaradorligini baholash hamda bank aktsiyadorlari tarkibi haqida ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

II bob bo'yicha xulosa

Bankning ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash moliyaviy hisobot ma'lumotlarining sifati va haqqoniyligi darajasi bilan amalga oshiriladi. Bunda, bank hisobotlarini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishda xalqaro standartlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Bazel qo'mitasining tavsiyalariga ko'ra, ichki audit xizmati bank faoliyati ustidan mutassil nazorat olib borishning tarkibiy qismi hisolanadi. Respublikamiz tijorat banklarida ichki audit xizmati muhim o'rin egallagan bo'lib, uning faoliyati Markaziy bank tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan Nizomda tekshiruvni tashkil etish va olib borish jarayonlari umumiy ko'rinishda yoritib berilgan.

Bankning o'sish istiqbollari tahlil qilinayotganda uning milliy va xalqaro bank xizmatlari bozorida faoliyatining ko'lamligini aniqlovchi omillar ko'rib chiqiladi. Bu omillarni o'rganish bank faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlashga imkon berib, bankning moliyaviy faoliyati natijalariga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Bankning ichki bank xizmatlari bozorida o'rning mustahkamligi va uning bank xizmatlari narxlariga ta'sir eta olish imkoniyati ham baholanib, bunda bankning jami aktivlar, xususiy kapital, kredit portfeli va mijozlarning depozit pul mablag'lari hajmi bo'yicha bozordagi mavqei ko'riladi.

Bankning ichki bank xizmatlari bozorida o'rning mustahkamligi va uning bank xizmatlari narxlariga ta'sir eta olish imkoniyati ham baholanib, bunda bankning jami aktivlar, xususiy kapital, kredit portfeli va mijozlarning depozit pul mablag'lari hajmi bo'yicha bozordagi mavqei ko'riladi.

Umuman olganda, tijorat banklari moliyaviy hisobotlarini amaliy ma'lumotlar asosida koeffitsientlar yordamida tahlil qilish undan barcha foydalanuvchilarga (sarmoyadorlar, kreditorlar, omonatchilar va boshqalar) uning faoliyat shaffofligi va ichki nazorat samaradorligini baholash hamda bank aktsiyadorlari tarkibi haqida ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI ICHKI AUDITDAN O'TKAZISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Bank ichki auditini sifatini oshirish

bilan bog'liq muammolar

Bank tizimidagi islohatlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklar faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llashni taqozo etadi. Shu bois, Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit xizmalari katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki va tashqi auditni kuchaytirishga nisbatan qo'yayotgan qat'iy talablari moliya–kredit muassasalarining o'z zimmlariga yuklanayotgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishini zaruriyat qilib qo'ymoqda.

Hozirgi kunda tijorat banklar faoliyatida ichki va tashqi auditni bir-biriga muvofiqlashtirishda ko'plab o'z echimini topmagan muhim muammolar mavjudki, ular tijorat banklarida ichki va tashqi audit natijalariga, jumladan, auditorlik xulosalarining haqqoniyligiga, auditorlik tekshiruvlarning sifatiga, auditorlarning etik faoliyatiga, auditdan o'tayotgan tashkilot yoki bank faoliyatiga real baho berish imkoniyatiga salbiy jihatdan ta'sir etmoqda. Shu bois, magistrlik dissertatsiyamizda ushbu muammolarni quyidagicha yoritishni lozim topamiz:

1. Tijorat banklarni tashqi auditdan o'tkazishda bank aktsiyadorlari va bank boshqaruvi o'rtasidagi ziddiyatlar.

Tijorat banklari yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashqi auditdan o'tkazishda eng muhim muammolardan biri bu bank boshqaruvi va aktsiyadorlari tomonidan bank moliyaviy ahvolini haqqoniyligini aniqlashda manfaatlar to'qnashuvidir. Chunki, tashqi audit "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra mustaqillik, xolislik, erkinlik tamoyillari asosida professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamda aktsiyadorlar va bank boshqaruviga bo'sinmaydigan

auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ko'pchilik hollarda bank boshqaruvi o'zining yillik foydasini yashirishga harakat qiladi. Chunki, bank foydasi kamaytirib ko'rsatilsa bank tomonidan davlat soliqlarini to'lash qisqaradi. Aktsionerlar esa bankning yillik foydasini ko'proq bo'lishidan manfaatdordirlar. Bunda, bankning yillik foydasi qanchalik ko'p bo'lsa, aktsiyadorlar bank aktsiyalaridan oladigan dividendlari ham shunchalik ko'p bo'ladi. Ma'lumki, bank boshqaruvi audit tashkiloti bilan bankni tashqi auditdan o'tkazish to'g'risida shartnoma imzolaydi. Biroq, aktsiyadorlar yig'ilishida bir nechta auditorlik tashkilotlari tenderda e'lon qilinib, aktsiyadorlarga ma'qul tushgan auditorlik tashkilotigina tekshiruvga jalb etilishini yodda tutish lozim. Shuningdek, bu holat har doim ham amalga oshirilmaydi. Bu esa auditorlik tashkilotining ma'lum bir tomondan bank boshqaruviga buysunib qolishini anglatadi. Natijada, ma'lum darajada auditorlik tashkiloti bank boshqaruvining manfaatlarini himoya qilishga majbur bo'ladi.

2. Tijorat banklari tomonidan auditorlik tashkilotlarini tanlash imkonining chegaralanganligi.

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda tijorat banklarni tashqi auditdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan va amalda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlar 5 tani tashkil qiladi. Ulardan 3 tasi xorijiy auditorlik tashkilotlari, 2 tasi mahalliy auditorlik tashkilotlaridir. Bu esa tijorat banklarining tashqi audit tashkilotlarini tanlash imkoniyati cheklanganligidan dalolat beradi.

Tashqi auditorlik tashkilotlarining kamayishiga quyidagi omillar ham sabab bo'lgan:

- Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ayrim bank auditini o'tkazishga huquqi bo'lgan auditorlik tashkilotlarining tashqi audit o'tkazish va litsenziya talablariga javob bermaslik oqibatlarida mazkur faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya bekor qilinishi;

- Ikkinchidan, 2007 yil 4 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 615-sonli Qaroriga muvofiq tasdiqlangan «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida»gi

Nizomda ko'rsatilgan "Ustav kapitalining miqdori va auditorlarining malakasiga qo'yilgan" talablarning oshishi natijasida auditorlik tashkilotlari sonini keskin qisqarib ketishidir.

3. Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik etik qoidalarining qo'pol tarzda buzilishi.

Ko'pgina auditorlik tashkilotlari o'zlarining auditorlik faoliyati va auditorlik konsultatsiya xizmatlarini amalga oshirishda auditorlik etik qoidalarining jiddiy tarzda buzilish hollari ko'plab uchraydi. Professional auditorlarning majburiy sifatlaridan biri bu jamiyat oldidagi ma'suliyatini tan olishidir. Shunga ko'ra, O'zbekiston Auditorlarining kasbga oid axloq kodeksi O'zbekiston Auditorlar palatasining 2005 yil 25 iyun 3-son, bilan qabul qilingan. U auditorlar auditorlik xizmatni ko'rsatishda mijoz bilan o'zaro munosabatlarini aniqlovchi etik va professional me'yorlarni ishlab chiqish va ularga qat'iy rioya qilishni tartibga soladi. Shunga ko'ra, auditorlik tashkiloti quyidagi auditorlik etik qoidalarga rioya qilishlari lozim.

4. Auditorlik tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlarning chegaralan-ganligi muammosi.

Tijorat banklar yillik audit tekshiruvlarini o'tkazuvchi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan va amalda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatining cheklanganligi. Bu esa tijorat banklarning tashqi audit tashkilotlari to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishib borishga va ularni tanlash imkoniyatini chegaralaydi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlari to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligining internet veb sahifasi orqali ma'lumot olishlari mumkin.

Bizningcha, veb sahifadan tashqari qo'shimcha iqtisodiy gazeta va jurnallarda ham auditorlik tashkilotlari ularning faoliyati to'g'risida ma'lumotlar, ularning reytinglarni e'lon qilish tijorat banklariga auditorlik tashkilotlari to'g'risida kengroq ma'lumotlar olish imkonini beradi, shu bois, bu borada qo'shimcha chora va dasturlar ishlab chiqish lozim.

5. Auditorlik tashkilotlarning xizmat narxining yuqoriligi yoki xizmat haqi(shartnoma qiymati)ning auditorlik tashkilotlari tomonidan belgilanishi.

Mamlakatimiz moliyaviy xizmatlar bozorida faoliyat yuritayotgan mahalliy auditorlik tashkiloti bilan xorijiy auditorlik tashkilotlari xizmatlarining narxi o'rtasida keskin farq mavjud. Tijorat banklarning ushbu xorij auditorlik tashkilotlarining xizmat haqlari hozirgi iqtisodiy sharoitda ularning daromadiga sezilarli ta'sir qiladi. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan va amalda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlarning soni kamligi natijasida auditorlik tashkilotlarning xizmat narxi yuqoriligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, uning asosiy sabablaridan biri xorijiy auditorlik tashkilotlarining dunyo miqyosida tutgan mavqaning yuqoriligi (dunyoda tan olingan, obro'yi balandligi), ushbu xorijiy auditorlik tashkilotlari dunyoning ko'pgina mamlakatlarida o'zining filiallarini ochgan va ularning ish tajribasining mahalliy auditor tashkilotlarimizga nisbatan yuqoriligi, mutaxassislarining ish tajribasi, bilim darajasi bu ularning mahalliy auditorlik tashkilotlarimizga nisbatan ustunligini bildiradi.

6. Auditorlik tashkilotlari ish tajribasining yuqori emasligi va xorijiy tashkilotlar bilan ishlash uslubining yo'qligi hamda ular xodimlarining malakaviy darajasi, salohiyatining yuqori emasligi.

Tashqi audit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bu ularning professional ish tajribasiga ega bo'lishidir. Auditorlik tashkilotlari majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni va №90-«Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari» nomli auditorlik faoliyati milliy standarti (AFMS)da ko'rsatilgan, istalgan professional xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin. Bunday xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- a) buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish
- b) moliyaviy hisobotni tuzish;

v) milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;

g) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;

d) buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;

e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish;

j) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.

Ushbu keltirilgan professional xizmatlar ro'yxati kengaytirilishi va to'ldirilishi mumkin, ammo hozirgi ko'rinishda ham auditorlik tashkilotlari tomonidan taklif qilinadigan xizmatlarning qanchalik xilma-xil ekanligini ko'rsatmoqda.

Auditorlik tashkiloti yuqori sifatli professional xizmat ko'rsatishga erishishi uchun o'z faoliyatini shunday tashkil etishi kerak-ki, uning ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashayotgan xodimlari quyidagi talablarga javob berishi lozim: halollik va haqqoniylik; professional kompetentlik va zarur tajriba hamda malakaga egalik; professional axloq normalariga rioya qilish va belgilangan standartlar (shu jumladan korxonadagi ham) talablarini bajarish; o'z professional majburiyatlarini bajarish chog'ida xodimlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni maxfiy (sir) tutish printsipiga rioya qilish va hokazo.

Auditorlik tashkiloti xodimlari ma'ruza va seminar ishtirokchilariga fuqarolik, soliq va boshqa qonunchiliklarda ro'y bergan o'zgarishlarni, buxgalterlik hisobini yuritishga doir me'yoriy hujjatlar (buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro hamda milliy standartlari, nizomlar, qarorlar, yo'riqnomalar va boshqalar)ni sharhlab beradilar. Shuningdek, bunday tadbirlarda hisob yuritish va hisobot tuzishda ko'p sodir bo'ladigan xatolar muhokama qilinadi va seminar ishtirokchilarining savollariga javob beradilar.

7. Auditorlik tashkilotlari tamonidan audit tekshiruvlarini o'tkazish muddatlarining real emasligi.

Bizga ma'lumki tijorat banklari tashqi auditorlik tashkilotlari bilan shartnoma tuzilayotganda shartnomada audit tekshiruvining muddati ko'rsatiladi. Bu esa tijorat bank faoliyatiga qisqa vaqt ichida auditorlik xulosasini yozishda uning faoliyatiga real baho berish imkonini chegaralaydi. Tijorat banklarida ichki audit bank faoliyatining yil davomida audit tekshiruvdan o'tkazish imkoni mavjud.

Tashqi auditorlik tashkilotlari bank ichki audit bo'limlari bilan hamkorlik qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Markaziy bankning tijorat banklarda ichki auditni tashkil etish bo'yicha tavsiya va nizomlarida bo'linmalarning auditorlik tashkilotlari bilan aloqasiga unchalik e'tibor berilmagan. Garchi, auditorlik tashkilotlariga o'zlariga kerakli ma'lumotlarni talab qilib olish va ularni taqdim etish majburiyligi aytilgan bo'lsada, auditorlik tashkilotlariga ulardan yil davomida qilingan ishlar bo'yicha hisobot talab qilib olish huquqi berilishi lozim. Chunki, bu hisobotlar bilan tanishish ichki audit faoliyatiga, qolaversa tizimga real baho berishni ta'minlaydi va yillik tashqi audit tekshiruvlarini sifatli o'tkazishga imkoniyat beradi va bevosita uning rivojlanishiga rag'bat uyg'otadi.

3.2. Tijorat banklarida ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tekshiruvlarini o'tkazishni takomillashtirishning umumiy yo'nalishlari

Respublikamizda auditorlik faoliyatini shu jumladan banklarda audit munosabatlarini tartibga solib turadigan qonuniy va me'yoriy hujjatlar to'plamining vujudga keltirilganiga qaramay, umuman auditni, xususan bank auditini xalqaro andozalar talablariga javob beradigan darajada tashkil qilish uchun hozirgi sharoitda harakatdagi qonun va me'yoiiy xujjatlarga ayrim qo'shimchalar va to'ldirishlar kiritish zaruriyati tug' ilmoqda.

Tijorat banklarining tashqi auditi ham – moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatuvchi, bankning moliyaviy ahvolini yomonlashtiruvchi hamda qonun hujjatlarini buzuvchi umumiy holatlarni aniqlaydi. Lekin, uning maqsadi ichki auditdan farq qilib, moliyaviy hisobotning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida fikr

bildirish, xizmatlar, yordam ko'rsatish hamda mijoz bilan hamkorlik qilishdan iborat.

Tashqi audit bankning moliyaviy ahvolini yaxshilash, investorlar, kreditorlarni jalb etish hamda bankka yordam va maslahat berish uchun o'tkaziladi.

Tijorat banklari ichki audit xizmati ish rejasini quyidagi yo'nalish bo'yicha takomillashtirish zarurdir.

1. Bank ichki audit xizmatining 1 yillik ish rejasini tuzish davrida bankni tashqi audit tekshirishlarini o'tkazadigan Audit firma faoliyati bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

2. Bank ichki audit faoliyatining 8 yillik ish rejasi Markaziy bank inspektorlik tekshirish rejasi bilan muvofiqlashtirish ortiqcha xarajatlar qilishning oldini olishga olib keladi.

Tijorat banklari kredit faoliyatini auditdan o'tkazishni takomillashtirishda avvalombor bank tomonidan Markaziy bank talablaridan kelib chiqib keyin bir yil muddatga tuzilgan kredit siyosatini tahlil qilishga e'tibor berish zarur.

Bundan tashqari, ba'zi banklarning kredit siyosatida kredit ta'minoti bo'lishi mumkin bo'lgan (garov, kafillik va kafolatlar) aniq ko'rsatilmagan. Natijada kreditlarni hujjatlashtirish tartibi to'liq hamma jarayonlarni o'z ichiga olmaydi. Hozirgi kunda, zarur hujjatlarning to'liq olinmasligi va rasmiylashtirilmasligi yomon kreditlarni qaytarishda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Umuman, jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni qon tomiri bo'lgan banklar faoliyatini yanada erkinlashtirish, fuqarolarni banklarga bo'lgan ishonchini oshirish, hamda respublika iqtisodiyotiga chet el saromoyadorlarini tijorat banklari orqali jalb qilishda banklarning audit tekshiruvidan o'tkazish muhim bo'lib bormoqda. Banklarning yillik moliyaviy hisobtlarini tashqi auditorlar tomonidan tekshirilishi va ularning natijalarini matbuotda e'lon qilinishi banklar o'rtasida halol raqobat muhitini yaratmoqda.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish, yo'nalishlari va istiqboli avvalombor iqtisodiy tizimning yangi tamoyillariga o'tish bilan bog'liqdir. 1992 yil dekabrda qabul qilingan va 2000 yil 26 mayda yangi tahrir asosida ishlab chiqilgan

«Auditorlik faoliyati to'g'irsida»gi Qonunga muvofiq, aktsiyalari fond birjalarida kotirovka qilinadigan cheklangan moddiy javobgarlikdagi xo'jalik sub'ektlari: banklar, birjalar, investitsion va moliyaviy kompaniyalar, chet el investitsiyalariga ega korxonalarining yillik moliyaviy hisobotlari (balans, foyda va zarar to'g'risidagi hisobotlar) mustaqil ekspertiza qilinmoqda.

Bank operatsiyalarining asosiy qismini kredit (60-70%) operatsiyalari tashkil qiladi. Shuning uchun audit qilishda bu operatsiyalarga katta e'tibor beriladi.

Fikrimizcha birinchi navbatda o'zgarishlar bank ichki audit xizmatini tashkil qilishga tegishli bo'lishi kerak. Markaziy bankning 1999 yilda tasdiqlangan 405-sonli «Tijorat banklari ichki auditiga qo'yilgan talablar to'g'risida»gi nizomga muvofiq Audit Qo'mitalari faoliyatini va umuman bank kengashlari faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish zarur. Bank kengashlarning faoliyatini ko'rib chiqishning sababi shundan iboratki, shu masala bo'yicha 2 oktyabr 1998 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 yanvardagi 24-sonli hamda 2000 yildagi 104-sonli qarorlari bilan bank kengashlari ichki audit xizmatini tashkil qilishni tubdan o'zgartirish ko'zda tutilgan edi.

Ammo amaliyotda bank kengashlari faoliyatida va bank ichki audit xizmatini tashkil qilishda kutilgan o'zgarishlar to'lig'icha amalga oshirilmadi. Chunki yirik tijorat banklari kengash a'zolari avvalgidek davlat vazirliklari, koorparatsiyalar va Markaziy bank a'zolaridir.

Bunday sharoitda kengash a'zolarining yuqori lavozimlari va mavqei bank ichki audit xizmati ustidan nazorat qilishga, uni zarur darajada tashkil qilishga vaqtlari ham bo'lmaydi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun bank kengash a'zolarining bir qismini shartnoma asosida doimiy ishga qabul qilish uchun konkurs e'lon qilish kerak.

Konkursda g'olib chiqqan eng kuchli bankir-iqtisodchilarni ishga qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu o'zgarishlarni amalga oshirishdan avval uning qonuniy asosini yaratish lozim.

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammodan keyingi masala, ya'ni ichki bank auditi xizmatining mustaqilligi kelib chiqadi.

Xususan, xozir amaliyotda bank ichki audit xodimlari va bosh auditor boshqa xodimlar singari (farroshlar singari) umumiy qoidalar asosida ishga qabul qilinadi va bo'shatiladi. Xarakatdagi qonunlarga asosan bu bank kengashi vakolatiga kirsada, Boshqaruv raisi buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Xuddi shu singari ichki audit xodimlari ish haqi bank kengashi vakolatida bo'lsa ham boshqa xodimlar singari hisoblanadi va to'lanadi. Ichki bank auditi xizmatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish bosh auditorlar tomonidan tayyorlangan bank kengashi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Bu xarajatlar smetasiga kerakli o'zgarishlar kiritish faqat bank kengashi vakolati bilan qilinishi zarur.

Alohida aytib o'tish lozimki, hozir tijorat banklarida bilimli va tajribali ichki audit xodimlarini tayyorlash va qayta tayorlash muammosi mavjud. Chunki ko'pgina tijorat banklarida xodimlarning ishdan bo'shab yangilari ishga kelishi muammosi saqlanib qolmoqda bular hozirgi zamon talablariga moslashtirish uchun doimiy o'quv kurslarini, chet el banklarida amaliyot o'tashini tashkil qilish lozim. Hozirgi davrda bank ichki audit xizmati tomonidan tayyorlanadigan, foydalanidigan va saqlanadigan ichki xujjatlarga talablar tubdan o'zgarishi lozim. Auditorlik faoliyatining xalqaro andozalariga muvofiq doimiy auditorlik fayllarini ishga qo'llash va foydalanish juda qulaydir. Doimiy auditorlik fayllarini bankdagi doimiy yig'ilib boradigan axborot to'plashi bo'lib, tekshirish natijasida yangilanib boradi. doimiy auditorlik fayllarini bankning har bir faoliyati bo'yicha tayyorlash va umumlashtirish mumkin. Misol uchun o'rtacha kattalikdagi tijorat banki auditori uchun quyidagi Doimiy auditorlik fayllari tuziladi: mijozlarni kreditlash; qo'zg'almas mulkni zalogga qo'yib ipoteka krediti va depozitlar bo'yicha aloqa fayl yuritiladi.

Doimiy auditorlik fayllarini tuzish va tayyorlash juda murakkab, ammo undan foydalanish va yangilash juda oson va qulaydir.

Bundan tashqari, doimiy auditorlik fayllari bank faollari bo'yicha, ularning tashkiliy tarkibi, asosiy xodimlar ro'yxati va majburiyatlari bo'limlar va filiallar to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bank kengashi va boshqaruvi banyonnoms va boshqa zaruriy xujjatlarni ham olish mumkin. Kredit amallari bo'yicha: kredit shartnomalari garov, kafolat va kafillik bo'yicha notarial tasdiqlangan xujjatlar to'plami, kredit qo'mitasi bayonnomalari, kredit bo'yicha zarurlarni qoplash zaxira fondini yaratish va uni ishlatish bo'yicha zarur ma'lumotlar ana shu doimiy auditorlik fayllarida saqlanadi.

Tijorat banklari ichki audit xizmati ish rejasini quyidagi yo'nalish bo'yicha takomillashtirish zarurdir.

3. Bank ichki audit xizmatining 1 yillik ish rejasini tuzish davrida bankni tashqi audit tekshirishlarini o'tkazadigan Audit firma faoliyati bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

4. Bank ichki audit faoliyatining 8 yillik ish rejasi Markaziy bank inspektorlik tekshirish rejasi bilan muvofiqlashtirish ortiqcha xarajatlar qilishning oldini olishga olib keladi.

Tijorat banklari kredit faoliyatini auditdan o'tkazishni takomillashtirishda avvalombor Bank tomonidan Markaziy bank talablaridan kelib chiqib keyin bir yil muddatga tuzilgan kredit siyosatini tahlil qilishga e'tibor berish zarur.

Natijada kreditlarni xujjatlash tirish tartibi to'liq hamma jarayonlarni o'z ichiga olmaydi. Hozirgi kunda, zarur o'ujjatlarning to'lik olinmasligi va rasmiylashtirilmasligi yomon kreditlarni qaytarishda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O'tkazilayotgan ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari ichki nazorat tizimi hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermasligini ta'kidlashga yo'naltirilgan. Shuning bilan birga banklarda ichki nazorat tizimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan ximoya qila oladi deya olmaymiz. Ammo yaxshi tashkil qilingai ichki nazorat tizimi riskni boshqarish va uni rahbariyat uchun unchalik xavfli bo'lmagan darajaga pasaytirish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ichki nazorat tizimi aniq, kat'iy darajaga ega emas. U o'zgaruvchan va turli omillar ta'siriga tushishi mumkin.

Nazoratning qo'pol kamchiliklarini aniqlash uchun, har qanday ichki nazorat tizimi doimiy ravishda tekshirib turilishi lozim. Bunday tekshirishlar ichki nazorat tizimini o'zgartirish va risklar darajasini aniqlash imkonini beradi.

Jahon tajribasiga muvofiq ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari o'rnatilgan tartib va standartlar doirasida o'tkazilsagina, u sifatli hisoblanadi. Ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari katta e'tibor bilan rejalashtirilishi, uning o'tkazilishi maxsus hujjatlar bilan birga auditorlik hisobotida aks ettirilishi lozim. Bank auditori hujjatlarni to'plash va tanlab tekshirishda ma'lum talablarga amal qilishi kerak. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish mobaynida o'z-o'zini boshqarishni ham yo'lga qo'yish talab etiladi.

Bank sohasida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan umumiy standartlarga asoslanadi. Bizning fikrimizcha audit standartlarini maxsuslashtirish bank auditini o'tkazish masalalariga uslubiy yondashishning bir xil talabini o'rnatish imkonini beradi.

Xorijiy davlatlarning auditorlik faoliyatidagi tajribasiga tayangan holda, tijorat banklari va kredit tashkilotlarining xususiyatlarini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida bank auditini o'tkazishda qo'llaniladigan standartlarni quyidagi tartibda moslashtirishni tavsiya etamiz:

- 1) Kredit tashkilotlarining auditini hujjatlashtirish;
- 2) Kredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisobotlarida og'ishishlar mavjudligini baholash.
- 3) Auditorlik riskini minimallashtirish va baholash.
- 4) Auditorlik tanlab tekshirishining hajmi, parametri va uslublari.
- 5) Firmaning ichki nazorat sifatini ta'minlash uchun auditorlik firmasi xodimlarining harakatlari.

Ulardan birinchi standartni ko'rib chikamiz:

Standartpiig maqsadi auditorlik ish hujjatlarining yagona shaklini aniqlash, ularning saqlanishi uchun talablar o'rnatish hisoblanadi. Standartning vazifasi kredit tashkilotlarini audit qilishda auditorlik ish hujjatlarining yagona shaklini aniqlash; auditorlik ish hujjatlarining saqlanishi va qo'llanishi bo'yicha auditorlarning

harakatlarini aniqlash hisoblanadi. Kredit tashkilotini audit qilishda olingan ma'lumotlar auditorning ish xujjatlarida aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Auditorning ish hujjatlari alohida to'ldirilgan jadvallar va hujjatlar shaklida bo'ladi va ular tushuntirishlar, izohlar, kredit tashkiloti rahbarlarining arizalari, kerak bo'lsa foto suratlari, kredit tashkiloti hujjatlariga takliflar, ma'lum ma'noga ega bo'lgan hujjatlar va auditorlik tekshiruvi rahbarlarining talabi bo'yicha unda ishtirok etuvchi auditorlar ro'yxatidap tashkil topinsh kerak. Ushbu standartga ko'ra majburiylikiga qarab auditning ish hujjatlariga doir hujjatlar majburiy va opsiya turlarga bulinadi. Majburiy hujjatlarga quyidagilar kiradi: kredit tashkilotini audit o'tkazish rejasi; kredit tashkilotini audit o'tkazish dasturi; ichki bank riskini baholovchi to'ldirilgan jadval; nazorat riskini baholovchi to'ldirilgan jadval; kredit tashkiloti buxgalteriya balansida og'ishishlar mavjudligi darajasini baholovchi tuldirilgan jadval; "Bajarilgan auditorlik ishlari" shaklidagi jadval natijalaridan olingan tekshirishning xajmi va parametrlari, tekshirish usullarini ta'riflash; iqtisodiy me'yorlar va ularni to'g'rilash bo'yicha to'ldirilgan jadval; kredit tashkilotining kredit siyosati to'g'risidagi ma'lumotlar; kredit tashkiloti tomonidan qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar amalga oshirilganda, boshqaruv risklari ma'lumotlari, qimmatli qog'ozlarning narxini yo'qotilishi bo'yicha tashkil etilgan rezervlar xaqida ma'lumotlar.

Auditorning ish xujjatlari tartibli bo'lishi va undagi ma'lumotlar oson o'qiladigan hamda bir xil bo'lishi lozim.

Auditorlik ish hujjatlaridagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanib, auditorlik firmasi tomonidan tarqatilmaligi kerak. Auditorlik firmasi kredit tashkilotining ish xujjatlarini taqdim etishi shart emas. Ammo Markaziy bank tomonidan 12 oktyabr 2002 yilda chiqarilgan qaror bo'yicha belgilangan talablar bo'yicha auditorlik hisobotida yoritilishi lozim bo'lgan savollar bilan birgalikda auditor tomonidan bankga bank hisobotini tasdiqlashi va baholashi, pul oqimi tahlili, sof foyda va kapitalni aniqlash, bank aktivlari va passivlarini boshqarish holati va shuningdek hamma ishchi hujjatlari nusxalarini taqdim qilishi lozim¹. Qonun xujjatlarida ko'rsatilmagan takdirda, auditorlik firmasi o'zining ish xujjatlarini boshqa

shaxslarga ko'rsatishga haqi yo'q va bunga majbur emas (shuningdek soliq organlari va boshqa nazorat qiluvchi tashkilotlarga ham).

Auditorlik xulosasini tuzish uchun auditorlik hisobotlari muhim asos hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvining asosiy qismi auditorlik ma'lumotlarining turlarini, usullarini va manbalarini aniqlash hisoblanadi. Auditorlik firmalari qanday usullardan foydalanishi na ularni tasdiqlash uchun asoslari auditorlik xulosasining ishonchliligini tan olishga aniqlik kiritadi.

Buxgalteriya hisobotining ishonchliligi to'g'risida asosli fikr hosil qilish uchun auditor etarlicha auditorlik dalillarini olishi lozim. Bular:

- a) buxgalteriya hisobida muomala va qoldiqlarning to'g'ri aks ettirilishini sinchiklab tekshirish;
- b) analitik ishlar;
- v) ichki nazoratni tekshirish.

Bank auditori auditorlik dasturida auditorlik dalillarini to'plash uchun qanaqa auditorlik amaliyotiga ega va ularning hajmiga e'tiborini qaratishi lozim. Auditorlik tekshiruvi uchun ma'lumotlarning qat'iy xajmi belgilanmagan. Auditor o'zining kasbiy kobiliyatidan kelib chiqqan holda, bankning buxgalteriya hisoboti xaqida xulosa berishi uchun ma'lumotlarning xajmini mustaqil ravishda belgilaydi. Auditorlik dalillarini olish usullarini aniqlashda moliyaviy ma'lumotlar ogishishi mumkinligini hisobga olish kerak. Auditorlik dalillari ichki, tashqi va aralash bo'lishi mumki. Ichki auditorlik dalillari iqtisodiy sub'ektdan og'zaki yoki yozma shaklda olinishi mumkin.

Tashqi auditorlik dalillari uchinchi shaxslar tomondan yozma shaklda olinadi(odatda auditorniig yozma so'roviga ko'ra). Aralash auditorlik daliliga yozma yoki og'zaki tarzda iqtisodiy sub'ektdan olingan ma'lumotlar xamda yozma tasdiklangan shaklda uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar kiradi. Auditorlik firmasi uchun tashqi auditorlik dalili eng axamiyatli va ishonchli hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda esa aralash va ichki auditorlik dalillari turadi. Auditorlik dalillari ishonchli va etarli bulishi lozim. Ularning etarliligi holatiga karab, ichki nazorat tizimi bahosiga va risk darajasiga qarab belgilanadi. Auditor ob'ektiv va asosli

xulosa tuzishi uchun etarli darajada sifatli dalillar to'plashi kerak. Auditorlik firmasining o'zi to'plagan dalillari, odatda, iqtisodiy sub'ekt taqdim etgan ma'lumotlar dan ishonchliroq hisoblanadi. Shuning bilan birga yozma shakldagi hujjatlar ogzaki olingan dalillardai ishonchliroq hisoblakadi. Auditor tomonidan to'plangan dalillar buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha qaydnomalarda, blankalarda, jadval va bayonnomalarda aks ettirilishi lozim. Olingan dalil ma'lumotlari auditorlik xulosasini tuzishda va tekshirilayotgan bank rahbariyatiga audit natijalari bo'yicha hisobot berishda foydalaniladi.

Auditorlik hisoboti ma'lumotlarini olish manbalari quyidagilardan iborat: bank va uchinchi shaxslarning birlamchi xujjalari; bankning buxgalteriya hisobi registrlari; bankning moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlili natijalari; bank va uchinchi shaxslarining og'zaki ma'lumotlari; bank ma'lumotlarini bir-biri bilan va uchinchi shaxs ma'lumotlari bilan taqqoslash; bank mulkiniig inventarizatsiyasi natijalari; yillik buxgalteriya hisoboti va boshqa xujjatlar. Auditorlik hisobotining sifati u olingan manbaga bog'liq. Auditorlar uchun to'g'ridan-to'g'ri o'zlari tekshirgan xo'jalik muomalalari natijalari eng kimmatli hisoblanadi. Auditorlik hisobotining etarliligini aniqlash auditorlik riski darajasiga, mustakil manbalardan guvohlarning mavjudligiga borliq. Agar auditor turli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalansa, u holda auditorlik riski darajasi kamayadi va aksincha auditorlarga iqtisodiy sub'ekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar etarli bo'lmasa va u biror hisob yoki muomala bo'yicha etarli ma'lumotlarni yig'a olmasa, auditorlik firmasi bu holatni hisobotda (rahbariyatga) aks ettirishi va bu masalaga auditorlik xulosasini bsrishda e'tibor berishi lozim. Agar uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar bankning hisob ma'lumotlari bilan bir xil bo'lmasa, auditor bu farqning sabablarini aniqlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rishi lozim. Bunda bank xodimlari, bank rahbarlarini va uchinchi shaxslar orzaki so'rovdan o'tkaziladi. Bank xodimlari va rahbarlarini hamda uchinchi shaxslarni orzaki so'rovdan o'tkazish auditorlik tekshiruvining hamma bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Og'zaki so'rov natijalari bayonnoma yoki qisqa tushuntirish tarzida yozib borilishi, unda so'rovni

amalga oshirayotgan auditor va so'rovdan o'tayotgan shaxsning ismi-familiyasi ko'rsatilishi shart.

Ayrim so'rovlarni o'tkazish uchun auditorlik firmasi so'rovlardan tashkil topgan varaqalar tayyorlashi mumkin. Bu varaqalarda so'rovdan o'tayotgan shaxsning bergan javobi qayd etiladi. Og'zaki so'rov natijalarining yozma shakli auditorlik tekshiruvining boshqa hujjatlariga ilova qilinishi lozim.

Audit xizmati, hozirgi kunda yuksalash pag'onasida turibdi. Unda bank faoliyatini yurgizishni to'g'ri tashkil qilish va ish davrida uchraydign kamchiliklarni bartaraf etishda audit xizmatini roli kattadir.

Banklarni kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bankning ichki instruktiv materiallari va nizomlari ishlab chiqilmagan. Bularga kredit bo'limining nizomi va mansabdor shaxslarni me'yoriy hujjatlari, burchlarini taqsimoti va kredit berish to'g'risida ko'rsatma, kredit qo'mitasini qarori kabilar tekshirilishidir. Bularni borligi banklarda kredit ishi yurituvchisini ratsional tashkil qilishga yordam beradi va xodimlarni o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Kredit berish uchun shartnomaga xulosa yasashga va ishlab chiqish jarayonida banklar tomonidan tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Ko'p hollarda bankdan qabul qilinayotgan hujjatlar to'liq emasligi yoki to'la rasmiylashtirilmagani aniqlanmoqda.

III bob bo'yicha xulosa

Mavjud qonunchilik va me'yoriy baza asosida auditorlik faoliyati muntazam rivojlanib bormoqda va buxgalteriya hisobi xamda auditning ko'p masalalari ham takomillashib bormoqda. Lekin mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi bilan birga moliya va boshqaruv sohasida jahon amaliyotiga yaqinlashish jarayonini tezlashtirish lozim. Chet ellik hamkorlarimiz foyda olish maqsadida o'z mablag'larini investitsiya qilishlari va aktivlarini sifatli boshqarishni kafolatlash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun mamlakatiimz mikro va makroiqtisodiyoti holatini bilishlari lozim bo'ladi.

Auditorlik xulosasini tuzish uchun auditorlik hisobotlari muhim asos hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvining asosiy qismi auditorlik ma'lumotlarining turlarini, usullarini va manbalarini aniqlash hisoblanadi.

Audit xizmati, hozirgi kunda yuksalash pag'onasida turibdi. Unda bank faoliyatini yurgizishni to'g'ri tashkil qilish va ish davrida uchraydign kamchiliklarni bartaraf etishda audit xizmatini roli kattadir.

Ayrim so'rovlarni o'tkazish uchun auditorlik firmasi so'rovlardan tashkil topgan varaqalar tayyorlashi mumkin. Bu varaqalarda so'rovdan o'tayotgan shaxsning bergan javobi qayd etiladi. Og'zaki so'rov natijalarining yozma shakli auditorlik tekshiruvining boshqa hujjatlariga ilova qilinishi lozim.

Audit xizmati, hozirgi kunda yuksalash pag'onasida turibdi. Unda bank faoliyatini yurgizishni to'g'ri tashkil qilish va ish davrida uchraydign kamchiliklarni bartaraf etishda audit xizmatini roli kattadir.

Banklarni kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bankning ichki instruktiv materiallari va nizomlari ishlab chiqilmagan. Bularga kredit bo'limining nizomi va mansabdor shaxslarni me'yoriy hujjatlari, burchlarini taqsimoti va kredit berish to'g'risida ko'rsatma, kredit qo'mitasini qarori kabilar tekshirilishidir. Bularni borligi banklarda kredit ishi yurituvchisini ratsional tashkil qilishga yordam beradi va xodimlarni o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Kredit berish uchun shartnomaga xulosa yasashga va ishlab chiqish jarayonida banklar tomonidan tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Ko'p hollarda bankdan qabul qilinayotgan hujjatlar to'liq emasligi yoki to'la rasmiylashtirilmagani aniqlanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan nazariy manbalar va amaliy ma'lumotlar tahlillaridan kelib chiqib quyidagi umumiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning samaradorlik ko'rsatkichlari auditini respublikamiz bank tizimidagi o'rni, ahamiyatini o'rgangan holda, bank auditining zarurligi va respublikamizda uning huquqiy asoslarini yaratilishi, tijorat banklari ko'rsatkichlarini audit qilish usullari va nazorat turlari, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida audit o'tkazishni tashkil qilish asoslari batafsil o'rganib chiqildi.

2. Tijorat banklarida samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili masalasida hozirgi kunda banklarda olib borilayotgan tijorat banklarida naqd pul muomalasi va kassa operatsiyalarining auditi, kredit operatsiyalar, qimmatli qog'ozlarga udi, hamda chet el valyutasidagi operatsiyalari auditini o'tkazish tartibi ko'ri bchiqildi.

3. Respublikamizda bank samaradorlik ko'rsatkichlaria uditini rivojlantirish muammolari va ularning echimlari bo'yicha tijorat banklarini "CAMEL" tizimi bo'yicha baholash masalalari yoritib berildi.

Bank operatsiyalarining asosiy qismini kredit (60-70%) operatsiyalari tashkil qiladi. Shuning uchun audit qilishda bu operatsiyalarga katta e'tibor beriladi. Respublikamizda hozirgi kunda kredit operatsiyalarining muammolari mavjud.

Banklarni kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, ko'p bankning ichki instruktiv materiallari va nizomlari ishlab chiqilmagan. Bularga kredit bo'limining nizomi va mansabdor shaxslarni me'yoriy hujjatlari, burchlarini taqsimoti va kredit berish to'g'risida ko'rsatma, kredit qo'mitasini qarori kabilar tekshirilishidir. Bularni borligi banklarda kredit ishi yurituvchisini ratsional tashkil qilishga yordam beradi va xodimlarni o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Tijorat banklarida kredit berish uchun shartnomani rasmiylashtirish jarayonida banklar tomonidan tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Ayrim hollarda bankdan qabulqilinayotgan hujjatlar to'liq emasligi yoki to'la rasmiylashtirilmaganini qo'lanmoqda.

Hozirgi kunda sug'ur takompaniyalari o'z majburiyatlari ustidan chiqolmay bankrotlik darajasiga ham borishmoqda. Bu esa, bankning kreditlarni qaytmaslik xatarini yuqori darajadiligini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ko'pgina asoslar yaratilmoqda.

Keltirilgan nisbiy misol va asosan respublika banklari amaliyoti tahlillariga asoslangan holda, O'zbekistonda bank nazoratini amalga oshirishda "CAMEL" tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni taklif etish mumkin:

Birinchidan, Markaziy bank tomonidan banklarning moliyaviy holatini baholashning "CAMEL" tizimigaa soslangan O'zbekiston banklari reytingtizimini samaradorligini oshirish;

Ikkinchidan, Markaziy bankdan tashqari bank bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy agentlar hamda boshqalarning, jumladan, jamoatchilik, kasaba uyushmalari, ilmiy tadqiqotchilarning ush bu tizim uslubiga asoslanib, mustaqil ravishda baholashlarni o'tkazishlari uchun matbuotda e'lon qilinadigan bank hisobotlaridagi ma'lumotlarni ko'paytirish;

Bank faoliyatini tartibga soluvchi Farmon, qaror va me'yoriy hujjatlarning ko'pligi banklarning ham, auditorlarning ham ishini qiyinlashtirmoqda, shusababli, ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi banklar va holatlarini yanada kengaytirish lozim, deb hisoblaymiz.

Banklar tizimini yanada erkinlashtirish sharoitida O'zbekistonda boshqa chet mamlakatlar singari yangi xizmat turi, ya'ni audit xizmati kundan-kunga o'zo'rnini topib bormoqdla.

Olingan xulosa va takliflar asosida quyidagi tavsiflar ishlab chiqildi:

1. Yagona talablarni belgilaydigan iqtisodiyotimiz va bank faoliyatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki audit uchun xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda ichki auditning milliy standartlarini ishlab chiqish;

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yilgan talablar to'risida Nizom"iga ko'ra Bank kengashi tijorat banking ichkia udit xizmatini yillik harajatlari smetasini tasdiqlab berishi lozim.

Biroq biz tahlil qilgan AT Aloqabank tizimida bu tartibga to'la rioya qilinmasligi mavjudligi sezildi. Bu bilan bankning ichki udit xizmatining bank boshqaruviga iqtisodiy jihatidan mustaqilligi ta'minlanmagan. Nizomning bu talabini bajarilishiga Markaziy bank tomonidan qit'iy nazorat o'rnatish zarur deb hisobalaymiz. Bu bilan tijorat banklarida ichki audit xizmati hodimlarining bank rahbariyatiga qaramligiga barham berilib, xolisligi va mustaqilligi ta'minlanadi;

3. Ichki auditning milliy standartlarini ishlab chiqish jarayonida ichki auditorlarni sertifikatlashni joriy etish zarur. Bunda Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni hisobga olgan holda, "Sertifikatlangan ichki auditor" (CIA – Certified Internal Auditor) xalqaro malakasiga asoslangan sertifikatlashni ishlab chiqish kerak. Auditorlar va buxgalterlar milliy assotsiatsiyasi, Auditorlar palatasi, Toshkent moliya instituti bilan hamkorlikda nodavlat tashkilotlar va ta'lim muassasalari sertifikatlashtirish dasturini ishlab chiqish uchun ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir;

4. Banklarda audit xizmatini samaradorligini oshirish uchun ularning texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni doimiy ravishda olib borish kerak. Shuningdek, audit o'tkazish jarayonlarini komp'yuterlashtirgan holda kompleks dasturlarini ishlab chiqishni va mavjudlarini esa modernizatsiya qilib borishni yo'lga qo'yish zarur. Bu ham ichki ham tashqi audit o'tkazish uchun ketadigan vaqtni qisqartirishga olib keladi, o'tkaziladigan audit harajatlarini qisqartirib iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Hozirda amalda AT Aloqabank tizimida ichki audit o'tkazish uchun 1,5-2,0 oy. Rasmiy xujjatlarda esa bir oy ko'rsatilgan. Tashqi audit o'tkazish uchun esa 4-5 oy vaqt sarf bo'lmoqda.

5. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida xama udit orlik faoliyatining milliy standartlaridan kengroq foydalanishni tavsiya qilamiz. Buning uchun barcha iqtisodiy sub'ektlar uchun yagona xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirilgan va respublika iqtisodiyoti xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda xalqaro audit standartlarini respublikamizda qo'llash bo'yicha yagona gurux tashkil etilishi lozim. Bu vazifani Respublika banklari assotsiatsiyasi amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

6. Auditorlik faoliyatini baholovchi mezonlar ishlab chiqilmagan, ularni baholash asosan inspeksion tekshiruvlari bilan solishtirish asosida o'tkazilmoqda. Shunga ko'ra, auditorlik tashkilotlar faoliyati ham banklar kabi reyting asosida baholanib, matubotda e'lonqilinishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarining ichki audit xizmati bankning boshqaruv organlariga bankning nazorati va ishlashi bo'yicha ob'ektiv tahlil, baholash, tavsiyalar va axborotni taqdim etishga katta yordam beradi. Ichki audit tijorat bankining ichki nazorat tizimining asosiy elementi bo'lib, xatarlarni kamaytirishga va ijro intizomini to'g'ri darajada ushlab turishda o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan ham ichki audit xizmatining respublika bank tizimidagi rolini oshirish muhim masala hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi taklif va tavsiyalar respublikamiz tijorat banklari amaliyotida qo'llanilsa, o'zining ijobiy samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida. // O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - to'ldirilgan 2 chi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston", 2003. -B. 30-47.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida qonun"ni 13.10.2016y.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2000 y. 26 may.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida" gi qonunni. Adliya vazirligidan 2003 yil 30 avgustda 530-2-son bilan ro'yxatga olingan.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// www.lex.uz

1.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 20-21-son, 216-modda; 2016 y., 16-son, 161-modda).//www.lex.uz

1.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish" chora-tadbirlar to'g'risida" 04.04.2017 yildagi PQ-2868-sonli Qarori.

1.8. "Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom" Adliya vazirligida 20.05.2010 yilda 949-6 -son bilan ro'yxatga olingan.

1.9. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy xujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom", Adliya vazirligidan 2000yil. 5 pareldi 916 –son bilan ro'yxatga olingan.

1.10. “Bank faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy xujjatlar talablarini buzganligi uchun tijorat banklariga nisbatan qo’llaniladigan jazo choralari to’g’risida yo’riqnoma” Adliya vazirligidan 7.10.2008 yilda 622-3 raqam bilan ro’yxatga olingan.

1.11. “Hisobvaraqlar ochish, mijozlar hisobvaraqlariga mablag’lar o’tkazish va hisobdan chiqarish, ish haqi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun naqd aul berish tartibi bo’yicha belgilangan talablarni buzganlik uchun tijorat banklariga nisbatan jarima jazo choralari qo’llash tartibi to’g’risida Nizom” Adliya vazirligidan 21.02.2006 yilda 1044-1 –son bilan ro’yxatga olingan.

1.12. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil yakunlari bo’yicha tijorat banklarida o’tkaziladigan tashqi auditorlik tekshiruvlariga qo’yiladigan talablar” 2011 yil 5-oktyabr №34-A/1 –sonli MB qarori.

1.13. “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo’riqnoma” Adliya vazirligida № 1831 -raqam bilan 27.06.2008 yilda ro’yxatga olingan.

1.14. O’zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to’g’rsida Yo’riqnoma” Adliya vazirligida 09.07.2012 yilda 1834-1 –son bilan ro’yxatga olingan.

1.15. “Tijorat banklarida kreditlarning xisobini yuritish tartibi to’g’rsida Nizom”., Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1435- son bilan ro’yxatga olinagan.

1.16. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil 34-A/1 sonli “O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2011 yil yakunlari bo’yicha tijorat banklarida o’tkaziladigan tashqi auditorlik tekshiruvlariga qo’yiladigan talablar”ni tasdiqlash to’g’risidagi Qarori.

1.17. 2018 yil 19 sentyabrda «O’zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» dagi №-3946 sonli prezident qarori.

1.18. “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag’larini xisobdan chiqarish tartibi to’g’risidagi Yo’riqnoma”, Adliya vazirligida 15.03.2012 yilda 2342 –son bilan ro’yxatga olingan.

1.19. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi. Adliya vazirligidan 13.08.2004 y.773-17-son bilan ro'yxatga olingan. 2005 y.41b.

1.20. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq./Sh.M. Mirziyoev. -Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. - 56 b.

1.21. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. -Toshkent: «O'zbekiston», 2017. -104 b.

1.22. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. -Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. -488 b.

1.23. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016yil 7dekabr / Sh.M.Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-48 b.

1.24. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, ya'ngi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

1. 25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan

ilmiy-ommabop qo'llanma (Matn)/nashr uchun ma'sul R.S.Qosimov.-T.: "Ma'naviyat", 2018. – 320 bet.

1.26. Karimov I.A. «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida» O'zbekiston. 2005.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi" muallif: F.M.Mullajonov [va boshq.] F.M. Mullajonovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri.T.: O'zbekiston, 2011.-368 b.

2.2. SH.Z.Abdullaeva. Xalkaro valyuta-kredit munosobotlari. Darslik V.m.: T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. - 576 b

2.3. Банковское дело: Управление и технология: Учѐб. Пособие для ВУЗов Под ред. Проф. А.Н. Товашева, Н. Юнитидана, 2005 г.

2.4. Белоглазова Г.Н. Банковское дело, 5-е изд., перераб. и доп. Учебник 2008. 320 ст. Фи.С.

2.5. Коваленко С.Б. Банковское дело: сборник тестов. Учеб.-метод. Пособие. 2010. 160 ст. Фи.С,

2.6. Банки и банковское дело /Под. Ред. И.Т. Балабанова – СПб Питер 2007

2.7. Bank auditi Ma'ruza matn T: TMI, 2005y.

2.8. Бонарев В.В. Финансовый анализ. - СПб: Питер 2007й.

2.9. Вахрин П.И. Финансовый анализ коммерческих и некоммерческих организациях: Учеб. Пособие – М; Издательство – книготорговых центр Маркетинг, 2007 г. 450стр.

2.10. Лаврушин О.И. Денги, кредит, банки. Учебник. М. "Кнорус". 2007. 320 стр.

2.11. Norqobilov S. Abdusalomova O. Banklarda audit. O'quv qo'llanma. Toshkent moliya instituti, T.: "Ma'naviyat"-2005 y.-176 b.

2.12. Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Magistrlar uchun darslik. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007 y, 180 b.

2.13. Смирнова Л. Банковский аудит. Учеб. Пос. ФиС. М.: - 2006й. 380 стр.

2.14. Sanaev N., Narziev R. Audit. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Sharq" 2001y.- 336b.

2.15. Musaev H.N. Audit. Darslik. Toshkent-"Moliya" -2003y.-220 b.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va unga qarashli muassasa, korxon va tashkilotlar faoliyatini audit qilishga doir ko'rsatmalar. 27 iyun 1998 yil 409.

3.2. Шеремет А.Д. Финансови анализ в коммерческом банке. – М Финанси и статистика 2007г.

3.3. Аренс А., Лоббек Д. Аудит. Учебник. Пер. С англ. 2005. 185 стр.

3.4. Валенцева Н. Сборник задач по банковскому делу. М.: - 2007. 120 стр.

3.5. Колесников В. Банковское дело. Учебник. 4-е изд. М.: - 2006. 240 стр.

3.6. Макальская А.К. Внутренний аудит. Уч. ДиС. М.: - 2005. 170 стр.

3.7. Островская О. Банковское дело. Толковый словарь. Гелиос АРВ. М.: - 2005.

3.8. Подолский В.И. Аудит. Учебник для вузов. Юнити-Дана. М.: - 2007. 175 стр.

3.9. Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. Инфра-М.: - 2006й. 220 стр.

3.10. Смулов А. М. Промышленные и банковские фирмы: взаимодействие и кризисные ситуации. 2009. 496 ст. Фи.С,

3.11. Суйц В.П., Смирнова Л.Р., Дубровина Т.А. Аудит: общий, банковский, страховой: Учебник/Под ред.проф. В.П.Суйца. 2-е изд. –М.: ИНФРА-М, 2005. – 671 с.- (Висшее образование).

3.12. Макроэкономические проблемы переходного периода в Узбекистане. «Проблемные исследования в экономике» Под редакцией Муллажанова Ф.М. и др., Издательский дом «Мир экономики и права», 1997г.-384с.

3.13. <https://www.sciencedirect.com>. Advances in accounting. Factors that influence the perceived use of internal audit's function work by executive management and audit committee. Mark Eulerich, Jolen Kremin and David A. Wood.

3.14. <https://www.sciencedirect.com>. “Current Trends in Internal Audit” Victor Munteanua, Dragos Laurentiu Zaharia, 5th World Conference on Educational Sciences 2013

3.13. Internet saytlari:

<http://www.lex.uz> – (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami)

<http://www.cbu.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb sayti)

<http://www.nbu.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki veb sayti)

<http://www.uzreport.com> – (O'zbekiston biznes yangiliklari)

<http://www.finance.uz> – (Moliyaviy-iqtisodiy tahlil portali)

<http://www.cbu.ru> – (Rossiya Fedratsiyasi Markaziy banki sayti)

<http://www.mf.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi veb sayti)

<http://www.stat.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitaci sayti)

<http://www.ahbor.uz> – (Axbop-Peyting reyting agentigi)

<http://www.bankir.uz> – (Bank axboplarini portali)

<http://www.bankingtech.com> – (Bank texnologiyalari)